TARBIYA

Baxt va muvaffaqiyat sirlari

Tarbiya biz uchun yo hayot –
yo mamot, yo najot –
yo halokat, yo saodat –
yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy

8



RMKJ



ZAMIN NASHR
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6566-9-7

TARBIYA 8

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
8-sinf o‘quvchilari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan



Toshkent – 2020
«Zamin nashr»

17(075.3)
UO‘K 17(075.3)

Z. Zamonov, O. Maxmudov, Z. Islomov, D. Ro‘ziyeva, D. Rahimjonov, Sh. Sattorov,
N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, N. Xolmuxamedova, S. Madaliyeva, L. Mo‘minova,
S. Zokirova – 8-sinf Tarbiya, darslik. – Toshkent: «Zamin nashr», 2020. –112 b.

Mas’ul muharrirlar:
Z. Islomov – filologiya fanlari doktori, professor.
D. Kenjayev – tarix fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

N. Jo‘rayev – siyosiy fanlar doktori, professor
I. Holiqov – tarix fanlari doktori, professor
G. Eldasheva – Toshkent shahar XTXQTUMO hududiy markazi kafedra mudiri, p.f.n.
I. Kamolov – Toshkent shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi
A. Hasanov – tarix fanlari nomzodi, dotsent
N. Rasulova – Olmazor t., 261-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining
tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.

SHARTLI BELGILAR



Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-6566-9-7

© Z. Zamonov, O. Maxmudov va b.
© «Zamin nashr». 2020.

www.idum.uz
@ talim_obrazovaniye

ASTOYDIL HARAKAT – EZGU MAQSADGA ERISHISH OMILI!

Assalomu alaykum, aziz o‘quvchi!

Inson bu dunyoga baxtli bo‘lish va boshqalarni ham baxtli qilish uchun kelgan. Shu bois odamzod o‘z oldiga ezgu maqsad qo‘yib, nurli kelajakni ko‘zlab yashaydi. Unga erishish uchun esa, albatta, o‘qib-o‘rganish, astoydil va maqsadli harakat qilish, ustoz-murabbiylar, yaxshi insonlarning foydali nasihatlariga quloq tutishi lozim. Hayot ummonida umid va ishonch bilan harakat qilsangiz saodat manzillariga yetasizlar.

Aziz o‘quvchi! Siz o‘z oldingizga aniq maqsad qo‘yishingiz, unga yetishish uchun nimalarga e’tibor berish kerakligini aniqlab olishingiz zarur. Ana shundagina umr yo‘lingizda uchraydigan hayotning turli sinovlarini mardonavor yengib o‘tasiz va vaqtlar o‘tib ko‘zlagan orzu-maqsadingizga erishasiz. Ammo buning uchun sizda astoydil harakat, mashaqqatlarni yengishga bo‘lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g‘ayrat-shijoat kabi xislatlar bo‘lishi kerak.

Zero, saodat har bir narsaga o‘z mehnati bilan erishmoqlikdir.

Hayot insonga uni munosib yashab o‘tish uchun berilgan.

Aziz o‘quvchi! Musaffo orzularingiz, pokiza niyatlaringiz amalga oshishida omad va zafarlar tilaymiz!

Kitobda Sizni mushohadaga chorlovchi ibratli hikoyat, hikmatlar, sof ezgu insoniy fazilatlaringizni yuzaga qalqib chiqishiga undovchi matnlar berilgan. Ular Sizda Tarbiya fani orqali quyi sinflarda olgan bilimlaringizni yodga olishda o‘ziga xos sinov vazifasini ham o‘taydi, deb ishonamiz.

Siz aqlli, bilimli, tirishqoqsiz. Siz baxtlisiz! Biz Siz bilan faxrlanamiz! Sizga omad yor bo‘lsin!

Mualliflardan

I BOB. TINCH VA XOTIRJAM YASHASH BAXTI

1–2-MAVZU: IFTIXORIMSAN – JANNATMAKON O‘ZBEKISTON!

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar





1. Quyida berilgan rasmlar asosida bugungi kun yoshlari jamiyatning faol a’zosi ekanligini izohlang.
2. Ajdodlardan qolgan ma’naviy meros qachon hayotimizning mazmun-mohiyatiga aylanadi?
3. «Dunyoni bilimli yoshlar egallaydi!» deganda, Siz nimani tushunasiz? Fikringizni asoslang.
4. Mazkur suratlardagi tengdoshlaringiz va aka-opalaringiz xalqaro fan olimpiadalari hamda sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarda shohsupaning eng yuqori pog‘onasini egallashgan. Bunda ularga qanday fazilatlar yetakchilik qilgan, deb o‘ylaysiz?











Vatan – inson eng ko‘p o‘ylaydigan, so‘zlaydigan, kuylaydigan mavzu. Eng yuksak jasoratlar sababi – Vatan. Ajdodlarimiz Vatan deb jondan kechganlar. Ularning jasorati doim qalbimizda. Yurtimizda ular abadiy xotirlanadi, qadrlanadi. Hozirda ham bunday insonlar ko‘plab topiladi.

Inson tug‘ilgach, asta-sekinlik bilan ulg‘ayadi, o‘zini o‘zga o‘lkalarda emas, faqat kindik qoni tomgan o‘z Vatanida kerakligini, uning bir bo‘lagi ekanligini his qilib boradi. Vatanini o‘z onasidek yaxshi ko‘radi, qadrlaydi. Vatan so‘ziga Ona so‘zining qo‘shilishi ham balki shundandir?!

Yoshlik insonning porloq kelajagi uchun tinimsiz harakat qiladigan, o‘z ifori va chiroyini yo‘qotmagan bahor fasli kabidir. Bu davrda har bir berilgan imkoniyatdan unumli foydalanib, o‘zining salohiyatini oshirib borgan, jamiyatda munosib o‘rin egallashga kirishgan yoshlarning kelajagi ham go‘zal va yaxshi bo‘ladi. Agar yoshlar o‘z muvaffaqiyatlari bilan yurt ravnaqiga hissa qo‘shayotgan tengdoshlaridan ibrat olsalar, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘zlarining ham mas’ulligini anglab yetadilar. Yoshlarning kelajagi butun bir millatning shirin tashvishidir.

1-ijodiy faoliyat

Bir donishmanddan so‘rashibdi:

– Haqiqiy vatanparvar kim?

Donishmand shunday javob beribdi:

– Vatan qudrati, el-yurt ravnaqi, yosh avlod kamoloti yo‘lida shaxsiy daxldorlikni his etgan va bu jarayonlarda faol bo‘lgan inson.

1. Donishmand nima uchun shaxsiy daxldorlikni his etishni vatanparvarlikka bog‘lab tushuntirmoqda. Fikringizni asoslang.

   Abdulla Avloniy o‘z asarlari orqali vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, yoshlarni Vatanga, xalqqa sadoqatli qilib kamol toptirishga undagan.



2. «O‘zi vatanparvar bo‘lgan inson boshqalarni ham shunday ezgu maqsad sari yashashga undaydi va buni jamiyat oldidagi asosiy burchi deb biladi», – degan fikrni Abdulla Avloniyning faoliyati bilan bog‘lab tushuntiring.



Mulohaza uchun

Bir kuni bir donishmand shogirdlariga «Vatanni sevmoq imondandir» deb aytibdi. Undan «Qaysi Vatanni?» deb so'rashibdi. «Ezgu amal qiluvchi insonlarning Vatani jannat», – deb javob beribdi donishmand. «Jannat qayerda?» – deb yana so'rashibdi. «Jannat onalar oyog'i ostida» debdi donishmand. «Unga qanday erishiladi?» deb yana savol berishibdi shogirdlar. «Onaning roziligi bilan erishiladi», deb javob beribdi donishmand.

Shuning uchun ham Vatan onaga qiyos qilinadi.

Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek ardoqlash unga munosib farzand bo'lishni anglatadi.



2-ijodiy faoliyat

1. Vatanparvar ajdodlarimiz haqida qanday badiiy asarlar o'qigansiz?
2. Zamonamiz qahramonlari deb kimlarni bilasiz?
3. Vatanparvar bo'lish uchun bugungi kunda qangay sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak deb o'ylaysiz?



Bilasizmi?

Yurtni sevish ajdodlarimiz ma'naviyatidan mustahkam o'rin olgan tuyg'udir. Zero, Vatanga muhabbat tuyg'usi muqaddasdir. Qadimdan ota-bobolarimiz Vatan, millat manfaati, or-nomusi, qadr-qimmatini har narsadan ustun qo'yib, Vatanga muhabbat, elga hurmat, sadoqatni muqaddas tuyg'u deb bilganlar. Shu tuyg'uga ega bo'lgan inson el-yurt ehtiromiga sazovordir. Bunday insonni dunyo taniydi.

Ajdodlardan qolgan ma'naviy meros biz avlodlarga omonat hisoblanadi. Ma'naviy merosimiz xazinasidagi ko'plab durdona asarlar xalqimizga xos bo'lgan ezgu fazilatlar, ezgu xislatlarni mujassam etgan o'lmas boylikdir. Ulardan to'g'ri va oqilona foydalanishning samarasini inson voyaga yetgan sari anglab-yetib boraveradi. Chunki ularda yurt qadri, inson fazilati va faqat ezgu ishlar bilan umr kechirish aytib o'tilgan.

www.idum.uz
@talim_obrazovaniye



Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV

3-ijodiy faoliyat

Prezidentimizning yuqorida berilgan fikrlarida «bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi», deganda qanday bo‘shliq nazarda tutilgan?

1-bosqich: Bo‘shliq haqida 5 ta fikr asosida jadvalni to‘ldiring. Vaqt 3 daqiqa.



T/r	Bo‘shliq	Uni keltirib chiqargan sabablar	Bartaraf etish yo‘llari
1.			
2.			
3.			

2-bosqich: Yozgan fikringizni partadosh o‘rtog‘ingizga ko‘rsating. Fikrlaringizni umumlashtiring va 5 ta fikrni qoldiring. Vaqt 2 daqiqa.

3-bosqich: Kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruhdagilar 5 ta asosiy fikrni ajratib olsin.

4-bosqich: Birinchi bo‘lib vazifani bajarib bo‘lgan guruh o‘z fikrlarini o‘qib beradi. Qolgan guruhlar umumiy bo‘lgan fikrlarni ajratsin va 5 ta asosiy fikrni aniqlasin.

5-bosqich: Fikrlarni umumlashtiring.

O‘ZBEKISTON HAQIDA NIMA BILASIZ?

Daftaringizga nuqtalar o‘rniga kerakli ma’lumotlarni qo‘yib, ko‘chiring.


1. O‘zbekiston Yer yuzining qaysi qit’asida joylashgan.
2. O‘zbekiston.....qit’asida joylashgan.
3. . . . . shahri O‘zbekistonning poytaxtidir.
4. O‘zbekistonning aholisi . . . . . mln. nafarni tashkil etadi.
5. O‘zbekistonning pul birligi . . . . .






6. O‘zbekiston . . . davlatlari bilan chegaradosh.
   Sharqda . . . . . .
   G‘arbda . . . . . .
   Janubda . . . . . .
   Shimolda . . . . . .
   Davlat chegaralarining uzunligi . . . .

7. O‘zbekistonda . . . daryolari bor.
   Eng uzun daryo . . . .
   Diyorimizdagi daryolar . . . hududlardan oqib o‘tadi.





8. O‘zbekistonda eng baland cho‘qqi . . . deb nomlanadi. U dengiz sathidan . . . balandlikda.

Mulohaza uchun



Odamzod umrining asosi

Bir fozil inson butun umr baxtli yashash sirlarini izladi. Barcha topganlarini qalin daftarga bitdi. So‘ng uni ikki baravariga kamaytirdi. Bir fursatli tanaffusdan keyin yozganlarini yana shunchaga qisqartirdi. Oxiri, ularni bir varaqqa jam qildi. Baribir bo‘lmadi, ko‘pdek tuyulaverdi. Alal-oqibat baxtli hayot sirlarini besh iboraga jamladi.

Ular quyidagilar edi: Yurtda tinchlik va ravnaq, mustahkam e’tiqod va sog‘liq, foydali kasb-hunar va bilim, totuv oila hamda farzand-u zurriyotlar kamoli.

Faqat ezgu amallarni o‘ylagan, harakat qilgan va uni amalga oshirgan inson martaba topadi, xalq e’zozida bo‘ladi, adolat va oqillik ham uning qalbidan o‘rin oladi.

Ma’naviyat xazinasidan



Kimki yurtni sevmasa, u hech kim
va hech nimani sevmaydi.
Mahmud Zamaxshariy



Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. O‘z Vatani, oilasi, mahallasi uchun jonkuyar bo‘lgan odamni qanday inson deb atash mumkin?
2. Fikringizni 10-betda berilgan suratlar asosida izohlang. Ushbu suratlarda ifodalangan tasvirlar sizda qanday fikr uyg‘otdi?
3. 6-surat bilan qolgan suratlarning qanday bog‘liqlik tomoni bor?

4. Quyida berilgan 4-5, 7-8-9-suratlardagi insonlarning harakatini qahramonlik deyish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
5. Mas'uliyat, majburiyat, burch, fidokorlik tushunchalarining bu suratlar bilan qanday bog'liqligi bor?
6. Bugungi kunda tinchlikning qadriga yetishning qanday yo'llari va usullari mavjud?
7. Hozirda dunyoda qanday bilimlar bor? Ularning qanchasi biz uchun zarur va qanchasi foydasiz bilimlar sirasiga kiradi?

Topshiriq. Quyidagi mavzularning biri asosida hikoya yozing.

Yurt ravnaqi uning farzandlari qo'lida.
Dunyoni bilimli yoshlar egallaydi.
Ajdodlardan meros yurt biz uchun omonat.
Biz tinchlik uchun mas'ulmiz.



1


2


3


4


5


6


7


8


9

3-MAVZU: MILLATLARARO HAMJIHATLIK

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Suratda tasvirlangan turli millat vakillarini nima birlashtirib turadi?
2. Suratdagi insonlarni birlashtirib turuvchi ezgu g‘oya va qadriyatlarni sanab bering?
3. «Inson bu hayotda yashar ekan, doimo ezgu ishlarga xizmat qilmog‘i lozim». Ushbu fikrni millatlararo hamjihatlik va ezgulik tushunchalariga bog‘lab tushuntiring.
4. Siz o‘zingizni bag‘rikeng inson deb o‘ylaysizmi? Bag‘rikeng inson bo‘lish uchun nima qilish kerak?



5. O‘zbekistondagi Koreys madaniyati markazi rahbari Viktor Pak o‘zining bir muro-jaatida «Biz birlashib yenga-miz» deganda, qanday birla-shishni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin?

Ma’naviyat xazinasidan

Vatanga mehr qo‘yishning darajasi, bahosi bo‘lmaydi, ya’ni biroz kam yoki biroz ortiq sevil-maydi. Chunki Vatan yagona, Vatan bittadir!

Mulohaza uchun

Azaliy xalqimizning yuksak fazilatlari sabab bugun ko‘plab millat va din vakillari yurtimizda tinch va ahil yashab, hayot kechirmoqdalar.

Respublikamizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodi bilan bog‘liq an’analarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat ravnaqi, jamiyat taraqqiyoti, umuminsoniy madaniyat va ma’naviyat rivojiga xizmat qiladi. Respublikamizda 16 ta diniy konfessiya vakillari ahil-inoq yashamoqdalar.

Abdulla Avloniy bu borada shunday degan edi: «Qaysi bir millatning orasida birlik ko‘tarilub, nifoq va adovat hukm surgan bo‘lsa, ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlanganligi tarix sahifalaridan ma’lumdir».

Bag‘rikeng yurtda yashayotgan o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq yoki boshqa millatga mansub bo‘lsa ham, barchasi bir diyorning farzandlaridir. Shu vatanda tug‘ilib o‘sgan har bir inson ota-bobolari, buvilari ahil, birdam yashash naqadar ulug‘ fazilat ekanligini ongiga bolalikdanoq singdirib ulg‘aytirganlar. Shunday ekan, yurtimizdagi tinchlik va xotirjamlikni asrab-avaylashga siz yoshlar ham o‘z hissangizni qo‘shmog‘ingiz lozim.





1-ijodiy faoliyat

1. Matnga sarlavha qo‘ying.
2. Hikoya matnini Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?» she’ri bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiling.

Seni faqat boyliklaring chun,
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirmam aslo! degan jumlaga e’tibor qarating.

3. Vatanni nima uchun sevish kerak?

2-ijodiy faoliyat

Berilgan matnni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Mamlakat rahbari «O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri» deganda nimani nazarda tutgan?
2. Nima uchun millatlararo munosabatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb aytmoqda?



Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Shavkat MIRZIYOYEV

Bilasizmi?

Bugun yurtimizda 138 ta milliy madaniy markaz faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular turli millat va elatlarga mansub fuqarolarning ezgu qadriyatlarini asrab-avaylash, urf-odat va an’analari bardavomligini ta’minlash, yosh avlodni millatlararo bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda 36 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda. Jamiyatlar O‘zbekiston va xorijiy davlatlar o‘rtasida do‘stlik aloqalarini rivojlantirish, chet elda mamlakatimiz ijobiy imijini targ‘ib etish borasida keng ko‘lamli faoliyat olib bormoqda.





Mulohaza uchun

Eng katta boylik

Xalqimizning moddiy va ma'naviy boyliklari juda ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz – bu jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikdir. Millatlarning o'zaro totuvligi va hamjihatligi do'stlikka asoslanadi.

Dunyodagi barcha yaxshilik va yangilanish, bunyodkorliklar, avvalo, insonlar, turli millat vakillari o'rtasidagi samimiy, do'stona munosabatlar samarasi o'laroq amalga oshiriladi. Negaki, do'stlik – totuvlik va hamjihatlik singari ijobiy xislatlarga tayangan holda o'zaro ishonch va mehr-oqibatni yuzaga keltiradi.

Shu ma'noda, diyorimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillarida yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlash, ularning manfaatlarni uyg'unlashtirish va yagona maqsad sari yo'naltirish milliy hamjihatlikni ta'minlashning asosiy omili hamda ma'naviyat bezagi hisoblanadi.



Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Totuvlik va tinchlik tushunchalarini mohiyatan bir-biri bilan bog'liq, deyish mumkinmi?
2. Quyidagi suratda aks etgan tinchlik uchun asos bo'ladigan poydevorni nomlang.
3. Tinchlikni ta'minlab turadigan ustunlarga nom bering.
4. Demak, agar poydevor mustahkam bo'lmasa... .
   Fikrni davom ettiring.



4-MAVZU: HAR BIR FARZAND VATAN HIMOYACHISI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Tengdoshlaringiz yoki do‘stlaringiz kelajakda harbiy bo‘lmoqchi ekanligini aytishganida Sizning xayolingizdan nimalar o‘tadi? Siz ham harbiy bo‘lishni orzu qilganmisiz? Nima uchun?
2. Hozirgi kunda Vatanni nimadan himoya qilish kerak?
3. Siz Vatanni himoya qilishga tayyormisiz? Qat’iyat va iroda, mustahkam sog‘liq, jasorat va matonat tushunchalarining Vatanni himoya qilish bilan bog‘liqligi nimada?
4. Vatan himoyachilarining qanday jasoratlarini bilasiz?

Mulohaza uchun



Jamiyat orzusi

Yosh avlodning har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi – nafaqat ota-ona, qolaversa, jamiyatning ham orzusi hisoblanadi.

Yoshligidanoq muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish, aqliy va jismoniy mehnatni o‘rganib, o‘zlashtirib borish hamda har tong toza havoda sayr qilishni kundalik faoliyatga aylantirib olgan yoshlarning maqsadlari ham jamiyat maqsadi bilan mushtaraklik hosil qiladi. Natijada bunday inson jismoniy kuch-quvvatga to‘ladi, ichki olami go‘zallashadi, boshqalar bilan munosabati namunali bo‘ladi. Mehnatsevar bo‘lib, tafakkur darajasi yuksalib boraveradi. Mustaqil fikrlashi charxlanadi, teranlashadi, takomillashadi.

Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlar sekin-asta ruhiy tetiklik, ma’naviy yetuklik maqomini qo‘lga kiritib boradi. O‘z Vatani sha’ni uchun uning mas’uliyati ham oshadi.

1-ijodiy faoliyat

1. Yoshlarning har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun qanday omillar zarur deb o'ylaysiz?
2. *2020-yilning 29-mart kuni Toshkent shahrida IIBB xodimlari karantin tartibiga rioya qilmaslik bilan bog'liq 419 ta faktlarni qayd etishdi. 418 kishida tibbiy niqoblar bo'lmagan, 1 kishi uy karantini tartibini buzib, o'zboshimchalik bilan uyini tark etgan.* Buning sabablarini nimalarda ko'rasiz?
   – Bir o'ylab ko'ringchi, nima uchun bir kunda 419 ta qoidabuzarliklar sodir bo'lishi mumkin?
   – Ichki ishlar xodimlari insonlarni nimadan himoya qilishgan?
   – Bu himoya nima uchun kerak?
   – Bu singari qoidabuzarliklarning oqibati nima bilan tugashi mumkin? Sababi nima deb o'ylaysiz?

Mulohaza uchun

Haqiqiy vatanparvar

Haqiqiy vatanparvar shunday insonki, u xalqining milliy qadriyat, odob-axloq mezonini yuksaltirish barobarida o'z xulq-atvorini takomillashtirib boradi;

xalq qalbidagi dard-u hasrat, g'alayon, sir-u sinoat, orzu umidlarini ko'ra biladi;

hayot yo'lini riyokorlik, tamagirlik, yolg'onchilik illatlaridan yiroq tutadi;

xalqining tinch-osuda yashashi, farovon turmush kechirishi uchun tinim bilmay mehnat qiladi. Bu yo'lda har qanday fidoyilikdan qaytmaydi.

Chunki u o'z yurtiga mana shunday aqlli, bilimli, tafakkuri yuksak, mushohadasi keng, mard va jasur farzandlar kerakligini chuqur anglaydi!

Ma'naviyat xazinasidan



Har bir odam haqiqiy baxtga erishishi uchun o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan birlashtirishi, xalq baxti uchun kerak bo'lsa jonini ham ayamasligi kerak. Inson oliy axloqiy sifatlariga, chunonchi, beg'arazlik, oliyjanoblik, vijdoniylik, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo'lishi lozim.

Berdaq

Mulohaza uchun

Vatan

Dunyoda sharafli vazifalar juda ko‘p, ammo ular ichida o‘z Vatanini himoya qilish sharaflilar ichra sharaflisidir.

Negaki, Vatan – bu insonga ato etilgan eng qutlug‘ ne’mat, halol nasibamiz, ajdodlarimiz uyg‘oq ruhi kezib yurgan tabarruk go‘sha, ularning nafasi ufurib turgan muqaddas tuproqdir!

Vatan unga bo‘lgan muhabbatdan yuksaladi, ardoqlanadi.

Jaloliddin Manguberdi shijoati, Amir Temur jasorati... Ularni haqiqiy vatanparvarlik deyish mumkin. Bular ko‘ksida Vatan degan quyoshni ko‘tarib yashagan insonlardir. Shu bois ular qalblarimiz to‘rida. Vatan tarixini nima bezab turadi, deb so‘rasalar, hech ikkilanmay shijoat-u jasorat, ma’rifat-u adolat, sadoqat-u himoya, degim keladi.

Inson ma’naviy olamining kuchi, qudrati uning Vatan oldidagi burchi, mas’uliyatini qanday anglab tushunishda ham namoyon bo‘ladi.

Minhojiddin MIRZO

Bilasizmi?



1999-yil yurtimizda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. 2000-yil 30-avgust kuni «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta’sis etildi. 2003-yili shu orden bilan Xorazm viloyati mukofotlangan.

Jaloliddin Manguberdi ordeni bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog‘ini himoya qilishda hamda uni ko‘z qorachig‘iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan, davlatimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan qo‘mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadi.



2-ijodiy faoliyat

1. Muallifning «Vatan – bu insonga ato etilgan eng qutlug‘ ne’mat, halol nasibamiz, ajdodlarimiz uyg'oq ruhi kezib yurgan tabarruk go‘sha, ularning nafasi ufurib turgan muqaddas tuproqdir!» degan jumlalariga e‘tibor qarating va o‘z fikringizni ayting.
2. Matndagi «qutlug‘ ne’mat», «halol nasiba», «tabarruk go‘sha», «muqaddas tuproq» deganda nimalar nazarda tutilgan?
3. Vatanparvarlikka mos so‘zlarni toping va fikringizni misollar bilan asoslang. Yana qanday so‘zlardan foydalanish mumkin?

VATANPARVARLIK, BU –



Ma’naviyat xazinasidan

Insonning burchlari to‘rtga bo‘linadi: o‘z oldidagi burch; oilasi oldidagi burch; davlat oldidagi burch; o‘zga odamlar oldidagi burch. Mana shu to‘rt zarurat ado etilsa, vatanparvarlik amalga oshadi.

3-ijodiy faoliyat



Berilgan matnni o‘qing va jadvalni to‘ldiring.

Qayerdaki fuqarolar jamiyat oldidagi mas’uliyat va burchni his qilar ekanlar, o‘sha joyda daxldorlik va faol fuqarolik pozitsiyasi kuchli bo‘ladi.

1-bosqich:

Har bir qatorni o‘z kundalik faoliyatingizdan kelib chiqib to‘ldiring.

burch	mas’uliyat	daxldorlik	faol fuqarolik

2-bosqich:

Partadoshingiz bilan muhokama qiling va beshta muhim fikrni qoldiring.

3-bosqich: Toq partadagi o‘quvchilar juft partadagilar bilan o‘z fikrlaringizni muhokama qilib, asosiy besh fikrni umumlashtiring.

4-bosqich: Har bir qator guruh bo‘lib birlashib, fikrlarni muhokama qiling. Fikrlarni uchta guruhga ajrating.

1-guruh: faqat oilaga oid fikrlarni kiriting.

2-guruh: faqat maktabga oid fikrlarni kiriting.

3-guruh: faqat jamiyat va davlatga oid fikrlarni kiriting.

Qaysi guruh vazifani birinchi tugatsa, shu guruh o‘z fikrlarini taqdimot qiladi. Qolgan ikkita guruh muhokama qiladi.

5-bosqich:

Har bir faoliyat bo‘yicha umumiy bo‘lgan qanday fikrlar borligini aniqlang. Bu fikrlarni qanday g‘oya birlashtirib turadi?

Mulohaza uchun

Fidoyi insonlar dunyoda bitmas-tuganmas, hech qanday boylik bilan almashtirilmaydigan – kishilar qalbiga yo'l topa bilishdek insoniy quvvatga egadirlar. Ular odamlarni o'ylantiradigan muammolarni hal etishga intilishlari bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Chunki fidoyi kishilar uchun umr jasorat va sinov maydoni hisoblanadi. Ular mehnatdan charchamaydigan paxtakor, mohir usta-hunarmand, halol savdo xodimi, jasur jurnalist, haqiqatparvar huquqshunos, izlanuvchan san'atkor, talabchan murabbiy, jonkuyar olim, mard va botir Vatan himoyachisi, adolatparvar yo'lboshchi – rahnamo singari turli kasb vakillaridir.



Demak, fidoyi insonlar hamisha ezgulik sari intilib yashaydilar. Ular nafaqat xalq bilan hamnafas, balki hayotda ularga nisbatan dadilroq, jasurroq harakat qiladilar. Toki fidoyilar bor ekan, bu dunyoda mehr-muhabbat, Vatanni ko'z qorachig'iday asrashdek oliy maqsad bardavom bo'ladi.



Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Vatan mudofaasi va xavfsizligiga Qurolli kuchlar mas'ul ekanligi ta'kidlangan. Nima uchun shundayligini o'ylab ko'rganmisiz?

2. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlashda nima uchun fuqarolar mas'uliyati va daxldorligiga tayaniladi? Bunda Sizning hissangiz qanday bo'ladi?

3. «Vatanimizning mard o'g'lonlari», deganda aynan qanday yoshlar nazarda tutiladi? Fikringizni asoslang.

4. Zamonamiz qahramonlari deb kimlarni ayta olasiz?



II BOB. O‘Z-O‘ZINI ANGLASH

5–6-MAVZU: HAYOTDA O‘Z ISTAKLARIMIZNI ANGLASH

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Siz hayotni qanday tushunasiz?
2. Insonning yashashdan maqsadi nima deb o‘ylaysiz?
3. Sizning xohishlaringiz va imkoniyatlaringiz o‘rtasida qancha oraliq bor? Unga qanday borishni bilasizmi?
4. Insonning xohishi kelajagi bilan qanchalar bog‘liq bo‘lishi kerak? O‘z hayotingiz bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiling.

Mulohaza uchun



Hayotdagi son-sanoqsiz narsalardan biri – xohishlarimizdir. Ular shunchalik ko‘pki, erishish uchun umr kamlik qiladi. Ammo jamiki yaxshi istaklarga erishish mumkin, agar ularni aniq ko‘ra olsak.

Hayotda nimani xohlayotganingizni tushunish oson bo‘lib ko‘rinsa-da, har kim ham xohishlarini aniq ko‘ra olmaydi. Bizning kelajagimiz xohishlarimizga bog‘liq. Chunki xohishlar bizning hozir kimligimizni va ertaga kim bo‘lishimizni belgilab beradi.

1-ijodiy faoliyat



1. «Ehtiyojlar cheksiz, imkoniyatlar cheklangan» deganda nimani tushunish mumkin?
2. «Ba’zida inson o‘z xohishlarini jilovlashi kerak» degan fikrga qanday qaraysiz? Qanday xohishlarni jilovlash kerak?

2-ijodiy faoliyat

1. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nima uchun inson doim yaxshi yashash, go‘zal turmush kechirish uchun harakat qiladi?
2. Siz Vatan uchun, uning farovonligi uchun qanday ishlarni amalga oshirmoqchisiz?
3. Rejalaringiz ketma-ketligini ishlab chiqing. Bunda quyidagi chizmadan foydalaning.



MENING REJAM

35 yildan keyin

10 yildan keyin

5 yildan keyin

Quyidagi jadvalni to‘ldiring

Hayotimda quyidagilar bo‘lmasligini xohlar edim	Ularning o‘rniga quyidagilar bo‘lishini xohlar edim

20 yildan keyin ...

Xohishlar – ichimizning aksidir. Shunday ekan, avval o‘zimizni anglash juda muhim.

Xohishlarni anglashning eng yaxshi yo‘li o‘zingizni kelajakda tasavvur qilishdir.

Yigirma yildan keyin qayerda bo‘lishingizni tasavvur qiling. Qanday uyda yashaysiz va nima ish bilan mashg‘ul bo‘lasiz, oilangiz – barchasi haqida o‘ylab ko‘ring.

3-ijodiy faoliyat



Berilgan gaplarni davom ettiring:

1. Men hayotim (uyim) quyidagicha bo‘lishini xohlar edim;
2. Men quyidagi kasb bilan mashg‘ul bo‘lishni xohlayman;
3. Bo‘sh vaqtimni quyidagicha o‘tkazishni xohlar edim;
4. Mening quyidagi orzularim amalga oshishini xohlar edim;
5. Yana quyidagilarni xohlar edim.
6. Xohishga qanday yetamiz?

Mening maqsadim	Imko-niyatim	Qanday harakat qilishim kerak?	Ishni nimadan boshlashim kerak?	Nimadan voz kechaman?	Kimdan qanday yordam olaman?

Bilasizmi?



Suyima G‘aniyeva adabiyotimiz, madaniyatimizni rivojlantirish va uni jahon madaniyatida tutgan o‘rnini xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishga katta hissa qo‘shgan. Olima Alisher Navoiy ijodini o‘rgandi, ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali navoiyshunoslik sohasida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratdi.

Atoqli adabiy ani-
yeva 1932-yilda
ga kelgan. Olima o‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. 20 dan ortiq kitoblar va 350 dan ortiq ilmiy-nazariy maqolalar yozdi. Oqila ayol, mehribon ona, serharakat olimaning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, u «El-yurt hurmati», «Buyuk xizmatlari uchun» ordenlari va O‘zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Uning ijodiy salohiyati va sermazmun ijodiga bag‘ishlangan «Yo‘l» nomli hujjatli film yaratilgan.



4-ijodiy faoliyat

1. Qaysi fazilatlar Suyima G‘aniyevaning muvaffaqiyatiga xizmat qilgan?
2. Suyima G‘aniyeva muvaffaqiyatining siri nimada deb o‘ylaysiz?

Mulohaza uchun

Talabalikdan akademiklik darajasigacha

Akmal yoshligidanoq tirishqoqligi, qiziquvchanligi bilan boshqa o‘rtoqlaridan ajralib turgan. U muntazam xotirasini charxlash uchun she’rlar yod olar, o‘qigan kitoblarini ko‘zlarini yumganicha takrorlashga harakat qilar edi. U maktabdagi barcha fanlarni o‘zlashtirishga harakat qildi. Chunki uning quloqlari ostida bobosining «Har bir behuda o‘tgan vaqtning uvoli bor, uvol bo‘lgan umrni ortga qaytarib bo‘lmaydi», degan o‘giti jaranglab turardi. Akmal qayerda imkon bo‘lsa, mutolaa qilishdan charchamasdi.

Yillar o‘tib u Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Yuridik fakultetini qizil diplom bilan tugatdi. Yaxshi mutaxassis bo‘lib butun dunyoga tanildi...

5-ijodiy faoliyat

1. Akmal Saidov haqida Vikipediya saytidan qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plang. Talabalikdan akademiklik darajasigacha bosib o‘tilgan muvaffaqiyatlar ketma-ketligini chizing.
2. «Har bir behuda o‘tgan vaqtning uvoli bor, uvol bo‘lgan umrni ortga qaytarib bo‘lmaydi» – degan o‘gitga siz qanday amal qilasiz?

Bilasizmi?

Akmal Saidov 2019-yil 17-oktabrda Belgrad shahrida (Serbiya) bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo ittifoqning 141-Assambleyasida 2020-2023-yillar oralig‘idagi muddatga ushbu Tashkilot Ijroiya qo‘mitasining a’zosi etib saylandi, 2020-yil 30-yanvarda Parlamentlararo Ittifoq Raisi o‘rinbosari etib tayinlandi. Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashining 2017-yil 10-11-iyul kunlari Kot-d’Ivuarda bo‘lib o‘tgan 44-sessiyasida IHTning Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasi tarkibiga Osiyo qit’asidan O‘zbekiston vakili sifatida a’zo bo‘lgan. Bir yildan so‘ng IHT Komissiyasining raisi etib saylangan.



Ma’naviyat xazinasidan



Sen taqdiri azalni emas, avvalo o‘zingni yengishga harakat qil. Dunyoni tartibga solishga urinma. Eng avval o‘z istaklaringni boshqara bil.

Rene Dekard

Mulohaza uchun

Siz sevimli mashg‘ulotingiz (sport, musiqa, raqs, o‘qish, nimadir yasash va boshqalar) orqali 10 foizga bo‘lsa ham allaqachon muvaffaqiyatga erishgansiz. Buni endi yanada rivojlantirish va hayotda o‘z o‘rningiz va salohiyatingizni topish orqali orzularingiz sari intilishingiz lozim.

Agar maqsadingizni aniq belgilab olsangiz, natijaga erishish uchun foiz ko‘rsatkichi ham yanada yuqorilab boraveradi.

Maqsadni bosqichma-bosqich belgilash yo‘li:

- Maqsadni aniq bayon qilish
- Maqsadga erishish uchun harakatlar rejasini tuzish
- Rejaga muvofiq birinchi qadamni qo‘yish
- O‘ylagan maqsadini kelajak sari yo‘naltirish
- Maqsadga erishgandan so‘ng, o‘zida qanday o‘zgarishlar bo‘lishiga e’tibor berish

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

Siz o‘z maqsadingizdan kelib chiqib, biror-bir natijaga erishish haqida mustaqil ravishda matn tuzing. Buning uchun quyidagi qoidalarga amal qiling va ular ham matnda o‘z aksini topsin:

1) orzularingizni ijobiy ma’noda ifodalang;
2) o‘ta aniq va sezgir bo‘ling: aytaylik nimadir qo‘lga kiritmoqchisiz, uning hidi, ovozi va tashqi ko‘rinishini aniq tasavvur qiling;
3) sizning fikrlash doirangiz qanchalik boy bo‘lsa, maqsadingizga erishish uchun miyangizdan shunchalik yaxshi foydalanasiz;
4) natija haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishga harakat qiling: maqsadga erishganingizda aniq nima yuz berishi haqida o‘ylang;
5) erishadigan maqsadingizning oqibatlari haqida bashorat qilib, ular boshqa odamlarga ziyon yetkazmasligi haqida o‘ylang;
6) siz erishgan natija o‘zingizga ham, boshqalarga ham faqat foyda keltirishi kerak.



7–8-MAVZU: QAT'IY FE'L-ATVORNING MUHIMLIGI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qat'iy fe'l-atvor nima? Unga qanday erishish mumkin?
2. Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini muhokama qiling.
   «So'zlagandan so'zlamagan yaxshiroq, so'zlagandim tegdi boshimga tayoq»
   «Inson maqomi fe'l-atvor, iroda bilan qo'lga kiritiladi».
3. Muvaffaqiyatga erishish uchun qanday fe'l-atvorga ega bo'lish kerak?
4. Siz qanday maqsad bilan maktabga keldingiz? Deylik biror fanni o'zlashtirishga qiynalayapsiz. Qanday harakat qilasiz? Nima uchun bu yo'lni tanladingiz? Quyidagi matnda sizga tegishli bo'lgan qanday fe'l-atvor bor?

Mulohaza uchun



Maqsadga qanday erishiladi?

Har bir inson, albatta, baxtli bo'lish uchun dunyoga kelgan. Buning uchun unda barcha imkoniyatlar eshigi ochiq. Faqatgina insonda qattiq xohish, mustahkam e'tiqod, qat'iy iroda va mas'uliyat hamda oliy maqsad bo'lsa kifoya. Agar shular asosida astoydil harakat qilsa, bunday inson har qanday qiyinchilik va qo'rqishlardan holi bo'ladi, o'z ezgu maqsadiga erishadi!

Bilasizmi?

Minoraning asosi – poydevor, inson baxti – fe’l-atvor

Buyuk minoralar samoga bo‘y cho‘zgan qad-qomatlari bilan salobatli ko‘rinsalar ham, aslida ularni ushlab turgan asos yer ostida bo‘ladi. Buxoroning mashhur Minorai Kalon obidasi yoki Toshkentdagi «Toshkent» teleminorasi, Xivadagi minoralar qarshisida nimani his qilasiz? Ularning salobatidan sizni hayajon bosadimi?

Minorai Kalonning balandligi 47,5 metr, uning asosi yer sathidan 11,5 metr chuqurlikda joylashganini bilasizmi? Uni qurgan usta poydevori mustahkam bo‘lmagan minora uzoq turmasligini aytib ketgan. Asrlarni pisand qilmay mag‘rur turgan buyuk inshootlarning barhayotligi ularning asosi bilan bog‘liq. Ular mustahkam poydevorlari bois vaqtdan g‘olib kelmoqdalar. Inson umrining, muvaffaqiyatining ham tagzamini, minoralar kabi asosi bor, bu – fe’l-atvor.

Sharq donishmandlarining «Kaloming belgilar kamoling» degan hikmati bor.

Harvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, odamning ishga kirishi yoki ishda mavqei ko‘tarilishida fe’l-atvorning o‘rni 85 foiz, bilim va tajriba, bilgan raqam va dalillarning o‘rni 15 foiz ekan.

«Fe’l-atvor» so‘zi barcha millat lug‘atlarida muhim so‘zlardan biri ekani, shubhasiz. Chunki shaxsiy va kasbiy yuksalish bevosita shu tushunchaga bog‘liq. Inson fe’l-atvori uning faoliyat jarayonidagi tarbiya, mehnat va ijtimoiy sharoit ta’siri bilan ma’lum darajada o‘zgaradi. Uni yaxshi tomonga o‘zgartirishda axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalab borish ham katta ahamiyatga ega. Fe’l-atvorning shakllanishida esa, ayniqsa, tarbiyaning ta’siri nihoyatda katta.

Ma’naviyat xazinasidan

Yaxshi fe’l-atvor bilan yashagan inson o‘zini yomon qiliqlardan saqlaydi.

Ahmad Yugnakiy



1-ijodiy faoliyat


1. Hayotda ko'proq aqliy faoliyat bilan ish ko'radigan odamlar muvaffaqiyatga erishadilarmi yoki amaliy faoliyat bilan shug'ullanadigan insonlarmi? Fikringizni asoslang.
2. Quyidagi savatchalardagi fazilatlar ichidan muvaffaqiyat qozonish va baxtli hayotga erishishga tegishlilarini ajrating.
   A) Baxtli hayot.
   B) Muvaffaqiyat qozonish kaliti.
   C) Muvaffaqiyat qozonish va baxtli hayot.
   Savatchalarda yana qanday fazilatlar kerak deb o'ylaysiz?

1 samimiylik
halollik
3 ochiq chehralik
4 omad
5 mustah-kam sog'lik
6 vijdonli bo'lish
7 murosali bo'lish
8 fidoyilik
9 sabr-matonat
10 intiluv-chanlik

A



B



C





Mulohaza uchun

Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o‘lchash dunyodagi eng baland tog‘ning eng baland cho‘qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. Inson shu qadar tubanki, uning illatlarini o‘lchash dunyodagi eng baland tog‘ning eng baland cho‘qqisidan emaklab tushish zahmati bilan teng.

O‘tkir Hoshimov



2-ijodiy faoliyat

1. Dunyoning taniqli minoralari va osmono‘par binolarining suratlarini chizing.
2. Ularning asosidan boshlab eng yuqori qismigacha insonga chiroyli yashab, go‘zal hayot kechirishi uchun zarur fazilatlarni mantiqiy ketma-ketlikda yozing.



Mulohaza uchun

Tanaffus vaqtida Bahrom va Aziz tortishib qoldilar. Bahrom o‘z fikrini o‘tkazish uchun rosa ovozini ko‘tarib qattiq-qattiq gapirardi. U shu darajada jahl otiga mingan ediki, sinfdoshlarining, bo‘ldi, o‘zingni bos, degan gaplari qulog‘iga kirmasdi. Aziz bir muddat Bahromning gaplarini diqqat bilan eshitdi-da, so‘ng indamasdan borib joyiga o‘tirib oldi. Bahromning baqirishi endi haqoratga aylandi. Bu safar Azizning qo‘llari musht bo‘lib tugildi-da, o‘rnidan dast tirdi, ammo shashtidan qaytib, yana joyiga o‘tirdi.



3-ijodiy faoliyat

1. Nima deb o‘ylaysiz. Aziz nima uchun Bahromning hamma haqoratlariga chidab, unga biror og‘iz so‘z aytmadi?
2. Siz Azizning o‘rnida bo‘lganingizda o‘zingizni qanday tutardingiz?

Mulohaza uchun



Aziz taekvando bo'yicha Osiyo chempioni bo'lganida bobosiga faxrlanib, «Bobojon, men hammadan kuchliman. O'z tengdoshlarim ichida chempionman» deb maqtandi. Bobosi unga «Barakalla bolam, bu sizning mehnatlaringiz natijasi. Lekin kuchli odam hammani yenggan odam emas, balki kuchli odam jahli chiqqanida o'zini yenga olgan, jahlini jilovlay olgan odam», dedi. Bobosining bu so'zlari Azizning quloqlari ostida jaranglardi.

Bahrom birozdan so'ng Azizning unga nisbatan bosiq muomalasini eslab, o'zining qilmishidan uyaldi. Keyin uning oldiga bordi-da, «Uzr so'rayman, og'ayni, qizishib ketibman, mendan o'tdi», dedi.

4-ijodiy faoliyat



1. Nima deb o'ylaysiz, Bahrom o'zidagi qaysi yomon odatini yoki xulqini tarbiyalashi kerak? Siz Bahromga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?
2. «Har bir ishda mas'uliyatli bo'lishning natijasi turfa dilxiraliklardan saqlovchi vositadir», degan fikrni qanday tushunasiz? Fikringizni asoslang.
3. Siz ham biror bir ishni qilishga qat'iy kirishdingiz, bunday holatda fe'l-atvor va intizomga qay darajada tayanasiz? Nima uchun?

Bilasizmi?



Jahl otiga qamchi urganlari sayin odamlar bir-birlarining ovozlarini eshitishga qiynaladilar, ular yana ham qattiqroq baqira boshlaydilar. Chunki jahl domiga tushgan odamlarning qalblari bir-birlaridan tobora yiroqlashib boradi. Uzayib borayotgan masofani qisqartirish, fikrlarini bir-birlariga yetkazish uchun ham ular baqira boshlaydilar.

Mulohaza uchun

Tirishqoqlik, jasur va g‘ayratli bo‘lish barcha orzu-havaslarga – quvvat, umidvorlikka – qanot, mazmunli yashashga – rag‘bat uyg‘otadi.

Ushbu fazilat insondagi yashirin imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishiga zamin yaratadi. Muhimi, shijoatli, intiluvchan insonlarda vaqtdan unumli foydalanishga ishtiyoq kuchli bo‘ladi.

Inson bir umr mo‘jiza kutib yashaydi, lekin asl mo‘jiza uning o‘zida yashirinib yotganini doim ham anglayvermaydi.

Ma’naviyat xazinasidan

So‘zingizga vafo qiling, ishda qat’iyatli bo‘ling. Sadoqat va samimiyatni saqlab qolmoq – cho‘qqining qorni ushlab qolishidek chiroylidir. Ezgulik uchun yaralgan yoki ezgulikdan mutlaqo mosuvo insonni ko‘rmadim. Kimki ezgulikka intilar ekan, hamisha hurmatda bo‘lur.

Konfutsiy



Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. «Maqsadga yetmoq uchun matonat va g‘ayrat kerak», degan hikmatni qanday tushundingiz? Hozirgi yoshingizga bog‘lab izohlang.
2. «Men baxtli bo‘lishim, hayotda muvaffaqiyatga erishishim uchun o‘zimda qanday fazilatlarni shakllantirishim kerak» mavzusida kichik matn tuzing. Bunda, albatta, kelgusida egallamoqchi bo‘lgan kasbingizning o‘ziga xosligini ham inobatga oling.

9–10-MAVZU: QIYIN VAZIYATDA HISSIYOTLARNI BOSHQARISH


Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hissiyot nima? Uni boshqarish mumkinmi?
2. Nima uchun inson o‘z hissiyotini boshqarishi kerak?
3. Gap-so‘z, ovoz, imo-ishora va gavda harakatlari orqali ijobiy va salbiy hissiyotlarni ifodalab ko‘ring. Do‘stlaringiz tomonidan ifodalangan harakatlarga izoh bering (bu vazifani guruh bo‘lib bajarishingiz ham mumkin).
4. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering. Erkin Vohidov besh yil davomida ishsiz qolganligini aytadi. Bu muammolarni u qanday yengdi? U o‘z hissiyotlarini boshqara oldimi?

Erkin Vohidovning muvaffaqiyat siri

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidovning 1968-yilda yozilgan «O‘zbegim» qasidasi o‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlaridan biri. Shoir unda milliy faxr tuyg‘usini yoritgani bois ko‘p tazyiqqa uchraydi va 5 yil ishsiz qoladi. Shunda ham uning irodasi sinmadi va u o‘zidagi hislardan oqilona foydalandi.

Shunday og‘ir jarayonda adabiyotimiz uchun g‘oyatda noyob hodisa sodir bo‘ldi. Shoir bo‘sh yurganidan foydalanib Gyote-



bo‘lmish «Faust» asarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Erkin Vohidovga keyinchalik yuqori lavozimlarda xalqimizga xizmat qilish nasib qildi.

U sinovli kunlarda ham, hayotining omadli yillarida ham sofdil, mehnatsevarligicha qoldi, tushkunlikka tushmadi yoki ortiqcha kibrga berilmadi.


1-ijodiy faoliyat

1. Matnni diqqat bilan o‘qing. Erkin Vohidovning «Inson» qasidasiga aytilgan qo‘shiqni tinglang.

«1973-yil edi. Bir kuni Erkin Vohidov «Inson» qasidasini o‘qib berdi. Tinglayapman-u, sochimdan tovonimga qadar bir titroq o‘rmalaydi. Shifokor sifatida odamni faqat biologik jihatdan bilishning o‘zi kamlik qilishi, inson o‘zini anglasa, quvvatini jamlasa, koinotni o‘zgartirishga qodirligini o‘shanda yanada teranroq anglaganman».

Abdukarim Usmonxo‘jayev, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

2. Matndagi ***«odamni faqat biologik jihatdan bilishning o‘zi kamlik qilishi, inson o‘zini anglasa, quvvatini jamlasa, koinotni o‘zgartirishga qodir...»*** degan fikrni tahlil qiling.
3. Shoir «Inson o‘zing» deganda insondagi qanday imkoniyatlar, qusurlar, xususiyatlar haqida so‘z yuritayapti?
4. «O‘zini anglasa», deyilganda nima nazarda tutilmoqda?



Mulohaza uchun

Hammamiz aya deb chaqiradigan mahallamizning ayasi betob bo‘lib qolibdilar. Ularni ko‘rgani onam bilan chiqdik.

Yaxshimisiz, tuzuk bo‘lib qoldingizmi, nima yordam kerak? deb so‘rashdi kattalar. Men ayani kuzatardim, kasallik ayani ancha yengib qo‘yibdi, yuzlari sarg‘aygan, lablar qurigan... Aya onamning savollariga kulimsirab, javoban rahmat, baraka toping, ancha yaxshiman, o‘zinglar yaxshimisizlar? bollarim tinchmi... derdi.

Mening kulgim keldi... Biz ayadan tuzuk bo‘lib qoldingizmi desak, u kishi, rahmat deb, bizdan hol-ahvol so‘rayaptilar.

2-ijodiy faoliyat

1. Hikoyada xalqimizga xos bo‘lgan qanday fazilatlar yashiringan?
2. Aya o‘zining hissiyotlarini qanday ifodaladilar?
3. Hikoyadagi *«Mening kulgim keldi... Biz ayadan tuzuk bo‘lib qoldingizmi desak, u kishi, rahmat deb, bizdan hol-ahvol so‘rayaptilar»* holatiga munosabat bildiring.
4. Hech e’tibor berganmisiz, ota-onangiz yoki yoshi kattalar bir-birlaridan hol-ahvol so‘rashganda «Xudoga shukr yaxshimiz, rahmat» deb aytishadi. Biror bir muammo bo‘yicha esa «Hammasi ortda qoladi, hali hammasi yaxshi bo‘ladi, har bir ishda xayr bor» deb o‘zlariga tasalli berishadi. Ular hissiyotlarini qanday boshqarishadi? Nima uchun shunday javob berishadi?
5. Hamdardlik, o‘zgalarni tushunish degan tushunchalarga hayotiy misollar keltiring.
6. Shukr qilish, sabr va matonat, quvonish, yig‘lash kabi hissiyotlar insonga nima uchun kerak?
7. *«O‘zgalar yutug‘idan quvonish – hasadni yo‘q qiladi, havasga aylanadi. Hamdard bo‘lish – o‘zingni anglatadi, bu esa shukrga sabab bo‘ladi. Shukr qilish – xafagarchilikning oldini oladi. Sabr qilishga o‘rgatadi. Sabr – irodani tarbiyalaydi. Iroda yashash uchun umid bag‘ishlaydi, muvaffaqiyatga yetaklaydi. Muvaffaqiyat – havas, shukr, sabr, iroda, umid uchun mukofotdir»* degan jumlani izohlashga harakat qiling.

Ma’naviyat xazinasidan




Nuqul o‘tmishidan noliydigan odam kelajagini barbod qilishi mumkin. O‘z ildizini inkor qilgan daraxt qurib qoladi.

O‘tkir Hoshimov

3-ijodiy faoliyat

1. Keyingi zanjir nima bo‘lishi mumkin? Zanjirni qayeridan uzgan ma’qul?



2. Agar zanjirlar uzilmasa, g‘azab nimalarga ta’sir ko‘rsatadi. U qanday ijtimoiy munosabatlarga raxna solishi mumkin?
3. Shu mashqni xafagarchilik, xavotir, aybdorlik hissi, hasadgo‘ylik kabi hissiyotlar bilan ham bajarib ko‘ring (vazifani guruhlarda bajarish yaxshi samara beradi).
4. Har bir fazilatning mohiyatini yoritishga harakat qiling.

Eslab qolamiz...


O‘zingizni anglang

Aql bilan ish tuting


Ijobiylikni yo‘qotmang



Ijobiy munosabat bilan javob bering

Rostgo‘y bo‘ling



Kamtar bo‘ling

Muloyim bo‘ling



Doimo oldinga intiling

Izlanishdan qochmang


5. Bu fazilatlarning insonning o‘z hissiyotlarini boshqarishi uchun ahamiyatli jihati bormi?
6. Bu fazilatlarning yoniga yana qanday fazilatlarni qo‘shgan bo‘lardingiz?
7. Eng og‘ir vaziyatda ham insonning irodasi sinmasligi uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

Mulohaza uchun



Insonning eng ulkan jangi o‘zi bilan kechadi. Biz har daqiqa o‘zimiz bilan kurashamiz – g‘azabni tiyish, ortiqcha xursandchilikka berilmaslik zarur. Ammo doim ham buning uddasidan chiqa olmaymiz.

G‘azab – inson hayotiga va salomatligiga zarar yetkazadigan, baxtsizlikka olib keladigan eng xavfli hissiyot. G‘azab oqibatida qon bosimi, yurak-qon tomir kasalliklari va ovqat hazm qilish bilan bog‘liq kasalliklar paydo bo‘ladi. Psixologlarning aniqlashicha, g‘azabni jilovlash insonning baxtiyorligini va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirar ekan.

Odamlar bizning aytgan so‘zlarimizni unutadilar, odamlar bizning ularga qilgan harakatlarimizni unutadilar, ammo odamlar biz ularga bergan hislarimizni unutmaydilar.

Har kuni ijobiy hissiyot bilan yashash juda muhim. Muammolar haqida jar solish emas, ulardan xalos bo‘lish yo‘lini topish – donolik. Yon-atrofga qarang, muvaffaqiyatsizlikka uchrab, ammo bo‘sh kelmay baxtini, omadini topayotgan insonlar juda ko‘p. Ular o‘z hissiyotlarini boshqara oladigan insonlardir.

Bilasizmi?




Hissiyot – bu quvvat, ich-ichingizda yuzaga kelgan kuch. U to‘g‘ri yo‘naltirilsa, yangi yutuqlar, tashabbuslar bunyod bo‘ladi. Agar undan noto‘g‘ri foydalanilsa, buzg‘unchilik sodir bo‘ladi, nimadir yo‘qotiladi. Oshkor qilinmagan hissiyot misoli qalbga tiriklayin ko‘milgan harakatga o‘xshaydi – u bir kuni bo‘y ko‘rsatadi. Yaxshisi, bu harakatdan oqilona foydalanish kerak.

HISSIYOTNI BOSHQARISH

Hissiyot	Boshqarilmagan hissiyot	Boshqarilgan hissiyot
Xafagarchilik	tushkunlik va kayfiyatsizlikka sabab bo‘ladi	inson tafsilotlarga, mayda detallarga ham diqqat bilan qaraydi
G‘azab	achchiq qilish kabi salbiy hissiyotlar asoratiga tushgan odam o‘zini yo‘qotib qo‘yadi	insonni yangi nimadir yaratishga rag‘batlantiradi
Xavotir	hafsalasizlikka olib keladi	muammolarga yechim izlashga undaydi
Aybdorlik hissi	yolg‘izlanib qoladi	nomunosib fe’l-atvorni tuzatishga undaydi
Hasadgo‘ylik	hasad avval hasadchini kuydiradi	odamni o‘z ustida ko‘proq ishlashga majbur qiladi

Bilasizmi?

Bizning kayfiyatimiz termometrga o‘xshaydi: u biz bilan yuz beradigan barcha ichki va tashqi o‘zgarishlarga reaksiya beradi.



Mulohaza uchun

SALBIY HISSIYOTLARNI BOSHQARISH YO'LLARI

Darhol munosabat bildirmang

Nimanidir rad etish yoki o'zingizni oqlashdan avval chuqur-chuqur nafas oling va o'zingizga bu o'tkinchi ekanini uqtiring.

O'zingizni o'rganing

Hissiyot orqali tanangiz sizga nimadir demoqchi va siz buni tushunishga harakat qiling. Misol uchun, salbiy hislar bizga yaqin atrofimizda tahdid borligidan hamda xatarga tayyor turish kerakligidan darak beradi. Shunda vaziyatni taranglashtirish o'rniga himoyalanasiz.

Dono bo'ling

Hayotimizdagi har bir voqea yaxshi va yomon ekanidan qat'i nazar, biror kattaroq maqsadga xizmat qiladi. Dono inson hozirgi vaziyatni anglaydi va oqibatini tasavvur qiladi.

Aqlni qo'lga oling

Salbiy hissiyotlar juda ta'sirchandir. Ular bizni nazoratga olib, yuzimizda va harakatimizda namoyon bo'lishga intilishadi.

Ijobiy munosabat bilan javob bering

Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish – mardning ishi. Salbiy hissiyotlar vujudga kelganida siz ijobiy fazilatlar bilan javob qaytaring.

Ijodiylikni yo'qotmang

Fikrlaringiz to'zg'ib, salbiy hissiyotlar ta'siriga tushib qolsangiz, hayotingizdagi biror yaxshi voqeani yoki sizga dalda bo'ladigan biror insonni eslang.



Mulohaza uchun

Tuyg‘ular dunyosi juda katta va xilma-xildir. Har bir inson ruhiy salomatligini saqlash uchun o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishi shart. His-tuyg‘ularini to‘g‘ri yo‘naltirgan va nazorat qila olgan inson kamdam-kam holatlarda muammoga duch keladi, bunday insonlar har qanday qiyin vaziyatdan chiqish uchun o‘zida kuch topa oladi.

His-tuyg‘ular insonlarda quyidagi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

– *ijobiy* (quvonch, baxt, sevgi);

– *salbiy* (qayg‘u, umidsizlik, yo‘qotish hissi);

– *ikki ma’noli, ya’ni aralash* (hasad va quvonch, ko‘tarinkilik va tushkunlik).

His-tuyg‘ular inson hayotini qay tarafga o‘zgartirib yuborishi, yaxshi yoki chigal tomonga o‘zgartirishi, avvalo, shu insonning o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. O‘zida yuzaga kelgan g‘azab va qo‘rquv, nafrat va qayg‘ularning oqibatlari unga zararli hisoblanadi.

4-ijodiy faoliyat

Siz o‘zingizni boshqara olasizmi?

1. Agar siz yomon kayfiyatda bo‘lsangiz, bunday holatda o‘zingizni qanday boshqara olasiz? Yomon kayfiyatdan tez fursatda chiqib keta olasizmi?
2. Sizning kayfiyatingiz hech qanday sababsiz yomonlashayaptimi? Buning oldini olish uchun nima qilish kerak, deb o‘ylaysiz?
3. Aytaylik, siz qiziqqonsiz. Bunday holatda o‘zingizni ijobiy tomonga o‘zgartira olasizmi?

Ma’naviyat xazinasidan

Hayotda hamma narsa muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun siz hamma narsaga ijobiy va yaxshi kayfiyat bilan munosabatda bo‘lishingiz kerak.

Benedikt Spinoza



Mulohaza uchun

Agar inson yaxshi kayfiyatni o'zida saqlab qolmoqchi va yomon kayfiyatni butkul tark etmoqchi bo'lsa, quyidagilarga amal qilishi lozim: musiqa mashqlarini bajarish, salbiy fikrlardan qochish, hazil qilish va sevimli mashg'ulot bilan yoki boshqa samarali faoliyat bilan shug'ullanish.

5-ijodiy faoliyat


1. Kayfiyatingizni qanday boshqarasiz?
2. Quyidagi rasmlardan foydalangan holda o'zingizni xursand qilish uchun qanday usullardan foydalanishingizni aytib bering.
3. Bu usullarni ijobiy va salbiy jihatlarga ajrating.
4. Yana qanday usullarni taklif qilasiz, nima uchun?



ijobiy	salbiy

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. «Tinimsiz malakangni oshir. O‘shanda seni vazifa emas, balki sen vazifa, mansabni bezaysan, u sen orqali qadr topadi», degan fikrni izohlashga harakat qiling!
2. Kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasbingiz haqida o‘ylab ko‘ring. Bu kasbni egallash uchun sizda maqsad shakllandimi?
3. «Maqsadga yetish uchun insonda matonat va g‘ayrat bo‘lishi kerak», degan hikmatni qanday izohlaysiz? Fikringizni mavzuga bog‘lab asoslang.
4. Biror maqsadga erishmoqchi bo‘lganingizda jahlning ta’siri qay darajada to‘sqinlik qiladi?
5. Jahlingiz chiqqanida sizning yuz tuzilishingiz qanday bo‘ladi?



Savollarga javob bering:

1. Jahlingiz chiqqanida nimalar deysiz?
2. Jahlingiz chiqqanida o‘zingizni qanday tutasiz?
3. Jahlingiz chiqqanida o‘zingizni qanday tinchlantirasiz?
4. Jahl qilganingiz uchun hech afsuslanganmisiz?
5. Jahlingiz chiqqanida sizga nimalar yordam beradi?

11-MAVZU: HAYOT – BETAKROR NE'MAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Ne'mat nima? Qanday ne'matlarni bilasiz?
2. Sizga berilgan ne'matlarning eng bebahosi qaysi?
3. Erta bilan turdingiz, lekin atrofingizdagilarni tanimayapsiz. Hamma begona, eng dahshatlisi ismingizni ham eslay olmaysiz. Kimligingizni unutgansiz. Siz qanday ahvolga tushasiz?
4. Insonga berilgan xotirani bebaho ne'mat deyish mumkinmi?
5. Siz «Umr», «Hayot» deb atalgan ne'matdan qanday foydalanayapsiz?
6. Tanlagan yumushlaringizga sarflayotgan vaqtingiz uvol bo'lmayaptimi? Fikringizni asoslang.

Mulohaza uchun



Hayot inson uchun berilgan eng qadrli omonat va imkoniyatdir. Bu omonatga xiyonat qilish barcha dinlarda qoralanadi.

Ba'zi insonlarning hayotdagi qiyinchilik va sinovlarga sabr-u bardoshi yetishmay, qabih yo'lni o'zlariga lozim ko'radilar. Qabihlikning eng yirik ko'rinishi giyohvandlikdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, giyohvandlik oqibatida har yili 200 mingdan ortiq odam hayotdan ko'z yumadi.



Giyohvandlik – barcha yomonliklarning boshidir.

Ma'naviyat xazinasidan



Hayot daftarining har sahifasi ikki betdan iborat. Unda – haqiqat va razolat, ma'rifat va jaholat, jo'shqinlik va tushkunlik, do'stlik va dushmanlik, yorug'lik va qorong'ulik, samimiyat va munofiqlik, xolislik va riyokorlik singari kundalik turmushning tashvish-u sinovlari, baxt-u quvonchlari bitilgan. Ularni munosib yengib o'tishda odamda o'ziga ishonch va qat'iyat bo'lishi lozim.

1-ijodiy faoliyat

1. Kichik guruhlarga bo'lining: Jamoangiz bilan voyaga yetmaganlar uchun to'g'ri yo'ldan adashmaslik bo'yicha ularning faoliyatlari algoritmini shakllantiring.
2. Qonunni buzgan tengdoshlaringizga ularni to'g'ri va munosib hayot yo'liga qaytarish uchun qanday tavsiyalar bergan bo'lardingiz? Tavsiyalaringizni jamoangiz bilan birga muhokama qiling.

Ma'naviyat xazinasidan

U M R

Umid – ato etilgan hayotni munosib, baxtli yashab o'tishga ahd qilmoq!

Mas'uliyat – hayot yuklaydigan mas'uliyatni zimmaga olmoq va uni sharaf bilan ado etmoq!

Riyozat – hayotda o'z o'rnini topish uchun harakat qilmoq.

2-ijodiy faoliyat

1. Omonatga xiyonat qilmaslik uchun nima qilish kerak?
2. Insonning umri kim uchun omonat?
3. Mas'uliyat va omonat o'rtasida qanday bo'g'liqlik bor? Fikringizni asoslang.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Xalqimizdagi «Intilganga tole yor», «Baxt yalqovga begona» degan maqollarni siz qanday tushunasiz? Siz uchun baxt nima? Saodat nima? Fikringizni asoslang.
2. Nima uchun inson o'z oldiga maqsad qo'yib yashaydi?
3. Hayotning ayrim sinov va tashvishlarini yengishda qaysi insoniy fazilatlarni ko'proq qadrlaysiz va nima uchun?
4. Quyidagi hikmatni mavzuga bog'lab tushuntirishga harakat qiling.

«Kim mashaqqat chekdi – topdi g'azna ham,
Kim tirishqoq bo'ldi – ko'p topdi karam».

Jaloliddin Rumiy

III BOB. O‘ZGARISH, MASHAQQATLARNI YENGISH

12–13-MAVZU: TUSHKUNLIK VA BESARANJOMLIKNI BOSHQARISH

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Tushkunlikka tushib qolibdi», «Tushkunlikka tushma», «Bezovta bo‘lma» degan gaplar qachon aytiladi?
2. «Tushkunlikka tushish» deganda nimani tushunasiz?
3. Inson qachon besaranjom bo‘lishi mumkin, jonsarak, bezovtalik, behalovatlik degan tushunchalarni nima birlashtiradi?
4. Siz shunday holatga tushganmisiz? Bunday holatlardan qanday qutulish mumkin?

Mulohaza uchun

Otabek tadbirkorlik bilan shug‘ullanish maqsadida qo‘lbola qilib issiqxona qurdi. Pomidorlari qizarib yetildi. Rossiyadagi hamkorlar bilan shartnoma ham tuzdi...

Bahorning so‘nggi kunlarida to‘satdan kelgan bo‘ron hamma uylarning tomini uchirib ketdi. Kuchli shamol issiqxonalarga ham katta zarar yetkazdi.

Otabek ikki qo‘li bilan boshini changallagancha, nima qilishini bilmay supada o‘tirardi.



1-ijodiy faoliyat

1. Siz Otabekning o‘rnida bo‘lganingizda nima ish qilardingiz?
2. Siz tadbirkorlikning qaysi turi bilan shug‘ullanishni istaysiz?



Uning xayoli shu darajada parishon ediki, onasining bir necha marotaba chaqirganini ham eshitmadi. Onasi qo'lida nimadir solingan qo'lbola xaltani ushlaganicha Otabekning oldida turardi.

Otabek boshini ko'tarib onasiga qaradi. Onasining nigohida zarracha ham afsus, nadomat ko'rmadi. Onaning nigohi qat'iy, shijoati esa mustahkam edi. Unsiz berilgan savolga onasi, «Tur o'g'lim, ko'pga kelgan to'y joningdan nari. Mana buni ol. Tushkunlikka tushma, Xudo o'zi bandasining rizqini beradi» deb taskin berdi. «Ona, bu haj ziyoratiga deb yig'ib qo'ygan pullaringiz-ku?» deb jovdiradi Otabek. Go'yo bu pullarni olsa, katta jinoyatga qo'l urgandek a'zoyi badani titrab, bo'g'ziga nimadir tiqilib qoldi. Ona yana «Bolam, faqat oldinga intil, ortga qarama, oldingda quduq bor, sen chanqagansan, unga tomon intil!», dedi.

Otabek qizargan ko'zlarini katta-katta ochib ufqqa qararkan, unda onasining shijoati porlab turgandek bo'ldi. «Onajon, siz duo qiling. Ishlarim yurishib ketishi bilan mening eng birinchi maqsadim sizni hajga yuborish bo'ladi», – deb o'rnidan turdi-da, vayron bo'lib yotgan issiqxona tomon odimladi...

2-ijodiy faoliyat

1. Otabekning tushkun kayfiyatdan chiqishiga nima sabab bo'ldi?
2. Agar onasi unga yig'ib qo'ygan pulini bermaganida-chi, u tushkunlikdan chiqib ketolmas edimi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.
3. Ona nimaga «Bolam, faqat oldinga intil, ortga qarama, oldingda quduq bor, sen chanqagansan, unga tomon intil!», deb ta'kidladi?

Mulohaza uchun

Malikani maktabda dugonalari «Matematika qirolichasi» deb chaqirishlari qulog'iga yoqimli eshitilardi.

Tanlovlarda g'oliblikni qo'ldan bermas, doim maktabi uchun kuboklarni olib kelar edi. Maktab rahbariyati uni Xalqaro matematiklar tanloviga tavsiya qildi. Ammo 100 ga yaqin mamlakatlardan kelgan o'quvchilar orasida Malika kumush

medal sohibi bo‘ldi. Bu natijadan Malikaning ko‘ngli to‘lmadi. «Nahotki, men bu safar kumush medal bilan cheklansam? Endi uydagilarga nima deyman? Dugonalarim nima deydi?» Malikaning kayfiyati tushib ketdi.



Uni tanlovga kuzatib kelgan ustozi «Qizim, hozir men javoblaringni ko‘raman, sen kayfiyatingni tushirma, ikkinchi o‘rin ham yomon natija emas», – deb uni yupatgan bo‘ldi. Ustozi har qancha urinmasin, Malikaning ko‘zlaridan yosh shashqator bo‘lib oqardi. Keyin ular xatolarni ko‘rishdi. «Eh afsus, hammasi to‘g‘ri ketayotgan ekan, bitta vergul butun boshli misolning natijasiga ta’sir qilibdi...». Malika xatolarini ko‘rar ekan, bu hammasi shoshqaloqligining natijasi ekanligini tushunsa-da, baribir, ich-ichini nimadir tirnayotganga o‘xshardi.

Endi nima bo‘ladi? Menga bildirilgan ishonch... Malikaning qo‘l telefoni tinmay jiringlar, kumush medal olganligi bilan uni tabriklagani ota-onasi, ukasi, singlisi, sinfdoshlari tinmay qo‘ng‘iroq qilishardi. Mana, samolyot Toshkent aeroportiga qo‘nganligi e’lon qilindi. Malika aeroport yo‘lagidan odimlab borar ekan, uni yo‘lakda, maktab rahbariyati bilan birga ota-onasi, singlisi, ukasi, sinf rahbari dasta-dasta gullar bilan kutib turishar edi. Malikaning birinchi gapi «Men albatta keyingi yili g‘olib bo‘laman. Men oltin medalni O‘zbekistonga olib kelaman!» degan gap bo‘ldi.



3-ijodiy faoliyat

1. Malika nima sababdan tushkunlikka tushib qoldi?
2. U o‘z tushkunligini boshqara oldimi?
3. Tushkunlikni boshqarish uchun nima qilish kerak ekan?
4. Tushkunlikni boshqarish uning kelgusi faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

Mulohaza uchun

Tushkunlikdan chiqish uchun quyidagilarga amal qiling. Yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz?



- Xotirjamlikni yo‘qotmang
- Muvaffaqiyat qozonish rejasini tuzing
- O‘z qobiliyatingizni chamalang
- Imkoniyatingizni hisoblab ko‘ring
- Oldingizga maqsad qo‘ying
- Izlanishdan qochmang
- Maqsadga erishish yo‘lini chizing
- Doimo oldinga intiling

Qiyin vaziyatdan chiqishda quyidagi mulohazalar yordam beradi:

Insonda doimo muammolar bo‘ladi. Faqat ularga yechim topishda uddaburonlik va tafakkurni ishga solish kerak.

Bir muammoni hal qilgach, ikkinchisi tug‘ilishi mumkin. Bundan aslo cho‘chimaslik kerak. Birinchi muammoning sabab va oqibatlaridan xulosa chiqarib, ikkinchisini ham yengib o‘tishga qadam bosing.

Bugun chiqarilgan qaror ertaga to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Shunday ekan, har bir chiqaradigan qarorning maqsadga erishishdagi ahamiyatini ham o‘ylab ko‘rish lozim.

Muammolarni hal qilish vaqti topiladi, buning uchun sabr-toqatli bo‘ling va o‘z harakatlaringizga tanqidiy ko‘z bilan qarang.

O‘z hayotingizni takrorlanmas deb biling. Maqsadingiz asosini har bosgan qadamingizni rejalashtirishda ko‘ring, harakatlaringiz samarasiz ketmaganligiga ishonch hosil qiling.




Ma’naviyat xazinasidan

Har bir ishda hikmat bor

Mulohaza uchun

Bir kuni bir kishining tuyasi quduqqa tushib ketdi va odamlarni yordamga chaqirish uchun bo‘ynini cho‘zib tepaga qaragancha pishqirib baland ovozda naray boshladi. Uning harakatlarini payqagan xo‘jayini yugurib keldi va quduqdan chiqarib olish uchun rosa harakat qildi. Uni quduqdan chiqarib olishning iloji yo‘qligini bilgach, xo‘jayin shunday fikr qildi:



«Tuyam ham ancha qarib qoldi, yaqin orada o‘lib qolishi aniq, o‘zi shusiz ham yoshroq va baquvvatroq tuya olmoqchi bo‘lib yurgandim, qolaversa, bu quduq ham qurib qoldi, uni anchadan beri ko‘mib yuborib, yangi quduq qazimoqchi bo‘lib yurgandim. Nega endi bitta o‘q bilan ikki quyonni urmayin, biryo‘la tuya va quduqni ko‘mib qo‘ya qolaman».

Ko‘p o‘ylab o‘tirmasdan qo‘shnilarini yordamga chaqirib, ketmon-kuraklarini olib, quduqni tuproq bilan to‘ldira boshlashdi. Nima bo‘layotganini bilgan tuya boshini chayqar, oyoqlari bilan yerni urar, tez-tez pishqirib, baland ovoz chiqarardi. Lekin odamlar uning harakatlariga e’tibor bermasdan, quduqqa tuproq tashlashda davom etishardi. Bir mahal tuya jim bo‘lib qoldi. Qachonki, xo‘jayin quduqqa qaraganda ajoyib bir manzarani ko‘rdi. Tuya o‘zining ustiga, o‘rkachlariga tushgan tuproqni bir silkinib tushirib yuborar, oyoqlari ostiga olardi. Biroz vaqt o‘tgandan keyin tuya barchani hayratda qoldirib, tuproqlarni oyoqlari bilan tepkilab-tepkilab yuqoriga ko‘tarilib, quduqdan chiqib olgan edi!

Endi bir o‘ylab ko‘ring. Balki sizning hayotingizda ham qiyinchiliklar, noxushliklar bo‘lgandir va bu kelajakda sizga yanada yaxshiliklar keltirar. Har qanday muammo sizga otilgan toshdir. Mana shu toshlar yordamida siz yuqori darajalarga ko‘tarilib borasiz.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

Berilgan matnlardan foydalanib tushkunlikka tushgan odam amal qilishi zarur bo‘lgan qoidalarni ishlab chiqishga harakat qiling.

Yordam uchun ayrim takliflar.

1. Qalbingizni _____ dan xalos eting.
2. Hayotingizni _____ va _____ da o‘tkazing va boriga ____ qiling!
3. Ko‘proq _____!
4. Kamroq _____!

Davom ettiring.

Shunda hayotingiz go‘zal bo‘ladi.

Ushbu qoidalarni kichik, o‘rta va katta guruhlarda muhokama qiling va 10 ta asosiylarini qoldiring.

Har bir qoidani nima uchun qabul qilganligingizni asoslang.

Jadvalni jamoa bilan to‘ldiring.

	tushkunlik	xalos bo‘lish	oqibat
1-hikoya			
2-hikoya			
3-hikoya			





14-MAVZU: MASHAQQATLARNI YENGIB O‘TISH

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar




1. Mashaqqat nima?
2. Insonning hayotida qanday mashaqqatlar bo‘lishi mumkin?
3. Mashaqqatlarni yengib o‘tgan insonlar haqida eshitganmisiz?
4. «Uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi» degan gapni eshitgan bo‘lsangiz kerak. Bu qanday yo‘l?
5. Inson mashaqqatlarni yengib o‘tishda nimadan quvvat oladi?

Mulohaza uchun



* * *

Mening hayotimni koshonalarda, qo‘sha-qo‘sha mashinalar qurshovida va shaxsiy samolyotlarda tasavvur qilgan odamlar qattiq yanglishadi. Menda samolyot ham, qimmat sport mashinalari yoki hashamatli saroy ham yo‘q. Mening kundalik turmushim nihoyatda sodda – yayov harakatda bo‘lish, ishga metroda qatnash. Men ixchamgina ijara xonasida umrguzaronlik qilaman. Kimdir mening o‘rnimda bo‘lishni xohlasa, u tamaki chekish, spirtli ichimliklar iste’mol qilish hamda javonni qimmatbaho kiyimlar bilan to‘ldirish kabi illatlardan voz kechishi kerak.



Oddiy va qashshoqlikda o‘tgan talabalik kunlarimdan boshlab shu kungacha o‘z-o‘zimga mol-dunyoning o‘tkinchiligini, hayotning bosh ehtiyoji – yaratuvchanlik ekanini aytaman. Sizning tashqi ko‘rinishingiz hech qachon ichki holatingiz uchun tarozi bo‘la olmaydi.

Ko‘pchilik boyib ketsa, pul ortidan yangi illatlar orttiradi va boshqa odamga aylanadi. Bu – bilib turib o‘zingizni qulga aylantirishga teng. Xo‘jako‘rsin-

ga serhasham hayotga oshno bo'lish, atrofga qo'rqoq va muttaham odamlarni to'plash, zarurat bois yolg'on so'zlash va xotirjamlikni qurbon qilish – bu sizning mol-dunyoga bo'lgan badnafslik uchun to'lanadigan tovonning bir qismi, xolos.

Mol-dunyoga o'chlik, qimmatbaho uy qurish yoki biror nima xarid qilish orqali soxta obro' orttirish isrofgarchilikka sabab bo'ladi. Ko'hna bir naql bor: «Qul ozodlikka erishishni emas, quldor bo'lishni orzu qiladi». Pulning quliga aylanib qolish – o'zining hayotiga egalik qila olmaslikni anglatadi».

Pavel Durov, Telegram asoschisi

Bilasizmi?

Telegram va Vkontakte ijtimoiy tarmoqlari asoschisi Pavel Durov 1984-yil Sankt-Peterburg shahrida tavallud topgan. U 11 yoshidan boshlab dasturlashga qiziqqan.

Durov 2006-yilda ikkita internet loyiha yaratadi (durov.com, Spbgu.ru). Ikkovi ham o'zining universiteti (SPbDU) va Rossiyaning boshqa universitetlari o'rtasida referat va g'oyalarni almashish imkonini beradigan loyiha edi.



Bu loyihani dastlab u Student.ru deb nomlamoqchi bo'ladi, keyin Vkontakte nomiga o'zgartiradi. Vkontakte yaratilgandan so'ng (2006-yil, 1-oktabr), bu sayt faqat barcha universitet talabalarining anketalarini saqlash uchun ma'lumotlar bazasi sifatida ish boshlagan, keyinchalik ijtimoiy tarmoq sifatida rivojlanib ketgan.

2013-yil Durov Digital Forest kompaniyasiga asos soladi va shu kompaniya Telegram messenjerini ommaga taqdim etadi.

1-ijodiy faoliyat

1. Pavel Durov oddiy turmush tarzini ma'qul ko'radi, chunki u_____._____ tufayli, insonning tashqi ko'rinishi hech qachon ichki holati uchun namuna bo'lolmaydi.
2. Mol-dunyo va serhasham hayotga o'chlik _____ga sabab bo'ladi.
3. Boylikning quliga aylanib qolish insonga _____ga yo'l qo'ymaydi. Chunki _____.
4. Yashashning bosh ehtiyoji mol-dunyo emas, yaratuvchanlikdir. Chunki _____ _____

Ma'naviyat xazinasidan

Tabiiy boyliklarimiz cheklangan, biroq ijodkorligimizning chegarasi yo'q.

Janubiy Koreya Posco kompaniyasining shiori

Mulohaza uchun



O'zi uchun o'zi saroy qurgan pochtachi

Fransiyalik Ferdinand Shevalni «pochtachi» deyishar edi. U g'aroyib va noodatiy shakldagi toshlarni yiqqan.

43 yoshlik pochtachi 1879-yilda o'ziga tegishli bir parcha yerda orzusidagi «Palais Ideale» («Bekamu-ko'st saroy»)ni qura boshladi. Savodsiz pochtachining qarorini atrofdagilar masxara qilishadi.

U ishdan charchab qaytgach, moylampani yoqib, tuni bilan yillar davomida to'plangan noyob shakldagi xarsanglarga tasavvuridagi shakllarni bera boshladi. Pochta markalarida, jurnal va suratlarda, rivoyat va afsonalarda ko'rgan hamda eshitgan hayotiy, xayoliy va afsonaviy hayvonlarning shakllari odamlarning diqqatini torta boshlaydi.

Shevalning ilhomi va g'ayrati tuganmasdek edi. Yigirma yil deganda saroyni o'ragan va betakror san'at asarlari o'rin olgan devor qad ko'taradi.





Jami 26 metrlik san'at namunalaridan iborat toshsaroyni tarashlash uchun Ferdinand Sheval 9 ming kun yoki 65 ming soat tinimsiz mehnat qildi. Bugun Fransiyaning Valans shahri shimolidagi Hoterives qishlog'iga bu noyob majmuani ko'rish uchun yiliga yuz ming nafar sayyoh tashrif buyuradi.



Pochtachi 33 yil davomida o‘zi orzu qilgan saroyni qurib bitkazdi. 1912-yilda bahaybat qurilishni tugatdi va qasrga kirish eshigiga «Plus opinivtre que moi se mettre à l’oeuvre» («Endi ishni mendan ko‘ra qat’iyroq kishi davom ettirsin») deb yozib qo‘ydi.

2-ijodiy faoliyat

Ferdinand Shevalning hayotidan xulosalar keltirilgan quyidagi gaplarni tugallang.

1. Saroyga kirar ekansiz, uning peshtoqidagi «hayotda _____ va _____ hal qila olmaydigan orzu yo‘q» degan fikrga amin bo‘lasiz.
2. Pochtachi Sheval _____ umr kechirib, o‘zidan _____ qoldirdi.
3. Har bir insonda _____ qobiliyati bor, faqat uni yuzaga chiqarish uchun zarur _____dan qochmaslik kerak. _____ esa mehnatni qanchalar mehr bilan qilganimizga bog‘liq.
4. O‘zgarishdan, hayotimizni _____dan qo‘rqmaslik kerak.
5. Kim o‘zgarishdan qo‘rqsa, u eng _____ odam.
6. Dunyo ko‘zguga o‘xshaydi: kim unga qaysi _____ da boqsa, o‘zini shu qiyofada ko‘radi.
7. Pochtachi bo‘lsa ham, Sheval o‘zini _____ deb bildi va o‘ziga saroy qurib, insoniyatga sovg‘a qildi.

Foydalanish uchun so‘zlar:

Oqilona, yaxshi nom, yaratuvchanlik, mehnat, qirol, nazar, o‘zgartirish, baxtsiz, natija, kuchli xohish, g‘ayrat, iroda.

Ma’naviyat xazinasidan

Ixtirochilikning 10 foizi tasavvur bo‘lsa, 90 foizi mashaqqatli mehnatdir.

Tomas Edison

Bilasizmi?

Insonning mustahkam irodasi, imon-e'tiqodi har qanday mashaqqatni yengish uchun asosdir. Dunyo tarixida jamiyatni rivojlantirish, insonlarning erkinligi va farovonligini ta'minlash ham aynan shu fazilatlarga tayanganligini ko'ramiz. Bu fazilatlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida – iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fan bo'ladimi – insonlarning ichki qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi. Bu esa shu xalqlarning taraqqiyotga erishishida mustahkam asos sifatida xizmat qiladi.

Buni Yaponiya yoki Janubiy Koreya misolida ko'rish mumkin. Bu mamlakatlarning tabiiy xomashyo resurslari, mineral resurslari deyarli yo'q. Lekin oxirgi 50-60 yil ichida yapon va koreys xalqlari katta bunyodkor kuchga aylandi. Shuning uchun «yapon mo'jizasi» yoki «koreys mo'jizasi» haqida gap ketganda, birinchi galda «yapon xarakteri», «koreys tabiati» degan iboralari tilga olinadi. Yaponlar va koreyslarning ichki dunyosi va irodasi mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqa oldi.



Yaponiya. 1945-yil





Seul





Xirosima. Gembaku gumbazi

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Mashaqqatlarni yengish uchun nima qilish kerak?
2. «Lochin ham havoning qarshiligi bo'lmasa parvoz qila olmaydi» degan naqlni mashaqqatlarni yengish bilan qanday bog'liqligi bor?
3. Yapon va koreys xalqlari nimaning hisobiga qisqa davr ichida rijovlanib ketdi?
4. Mamlakatning taraqqiy etishi uchun har bir insonning hissasi qanday bo'lishi kerak?
5. Rasmlarga qarab fikringizni bildiring.















15–16-MAVZU: TANQID VA TANQIDIY FIKRLASHNING MUHIMLIGI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Daftarga 2 hafta davomida o'zingiz eshitgan yangiliklarni yozing.
2. Yangiliklarning qaysi biriga ishonmasligingizga e'tibor bering, nega?
3. Nima uchun yangiliklarga qo'yilgan har bir sharhga tanqid bilan yondashdingiz: nega «ha», nega «yo'q».
4. Yangiliklardan qaysi birini ikki marta tekshirishingiz kerak.
5. Yangiliklarning ishonchliligini tekshirishingiz mumkin bo'lgan manbalar ro'yxatini tuzing.

1-ijodiy faoliyat

Insonlar qanday fikrlaydilar?



– Oyijon menga yoz davomida o'qituvchim bilan aloqa qilishim uchun yaxshi noutbuk kerak?



– Lekin, qizim, uni sotib olish uchun ortiqcha pulimiz yo'q-ku?



Qo'limdan nima ish keladi?



Hisob-kitobni yaxshi bilaman! Ta'til davomida do'konda sotuvchiga yordamlashaman! Yaxshi pazandaman, balki oshxonada oshpazga yordam berarman.



1. Bu qiz noutbukka ega bo‘lish uchun sharoitni qanday tahlil qildi?
2. Sharoitni va o‘z imkoniyatlarini qanday baholadi?

Mulohaza uchun

Tasavvur qiling, siz ko‘p ma’lumotlarni bilasiz va kuchli xotiraga egasiz. Lekin, bu qobiliyatlaringiz sizga ba’zi bir muammolarni hal qilishga yordam bera olmaydi. Chunki sizda hozircha tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi yetishmayapti.

Tanqidiy fikrlash quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Shaxsiy nuqtayi nazarga egalik va uni himoya qila olish
- O‘zgalarning tanqidiy fikriga sog‘lom munosabatda bo‘lish
- Yangi g‘oyalarni ilgari surish
- Ma’lumotlarning aniqligini o‘rganish, tekshirish, baholay olish.
- Ma’lumotni o‘zlashtirish, dalillarni qabul qilish
- Yolg‘onchilik va firibgarlikka qarshi immunitet mavjudligi
- Fikrlarini aniq tasavvur qilish, natijani ko‘ra olish



Quyida tanqidiy fikrlashning mohiyati va har kim tanqidiy fikrlashni o‘rganish usullarini ko‘rib chiqamiz:

muammolarni tan olish va ularni hal qilish yo‘llarini topish

kerakli ma’lumotlarni to‘plash va saralash

tasdiqlanmagan taxminlar va taxminlarni tan olish

ma’lumotlarni sharhlash va dalillarni baholash

xulosalar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik bor yoki yo‘qligini ko‘rish

ijobiy xulosalar chiqarish va ularni shubha ostiga qo‘yish

2-ijodiy faoliyat





1. Ushbu rasmlarni mavzu bilan bog‘lab izohlang.
2. Qanday sharoitda yangi g‘oyalar paydo bo‘ladi? O‘z hayotingizdan misollar keltiring.

Bilasizmi?

Tanqidiy fikrlash chog'ida e'tibor qilinishi lozim bo'lgan eng boshlang'ich narsa – bu suhbatdosh so'zlarining tuzilishiga e'tibor qilishdir. Agar suhbatdosh so'zlashayotganda «menimcha», «nazarimda», «balki» kabi so'zlarni ishlatsa, demak, bu axborot unchalik ishonchli emas, uni tekshirish lozim. Bu kabi vaziyatda savol berib, axborotga aniqlik kiritish zarur.

Tanqidiy fikrlash – bu hamma narsani tanqid qilish emas. Bu bizga kelayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, uni shubha ostiga olib, asoslarini tekshirish va albatta vaziyatni mustaqil baholab, qaror chiqarish.

Ma'naviyat xazinasidan

Ketmas boylik

Menda bir so'm bor. Sizda ham bir so'm bor... Men sizga o'zimning pulimni berdim. Siz ham menga o'zingizning pulingizni berdingiz... Hech nima o'zgarmadi. Sizda ham bir so'm pul qoldi, menda ham... Menda yangi bir fikr bor. Sizda ham yangi fikr bor... Men sizga yangi fikrimni aytdim. Siz ham menga yangi fikringizni aytdingiz... Sizda ham ikkita fikr paydo bo'ldi, menda ham... Esli odam pul almashmaydi, fikr almashadi.

O'tkir Hoshimov

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Tanqidiy fikrlash nima va uning tanqid bilan farqi nimada?
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun nimalar qilish mumkin?
3. Tanqidiy fikrlash omillari qaysilar?
4. Mavzuni mustahkamlash uchun sinfdoshlaringiz bilan turli xil fikrlar bildiring va unga tanqidiy yondashing.
5. «Odamga tanqidiy fikrlashga nima yordam beradi?» degan savolga 10 xil ko'rinishda javob topib keling. Lekin topilgan javoblarning barchasi tanqidni to'g'ri shakllantirishga xizmat qilsin.

IV BOB. TARAQQIYOT VA BIZNES – ILM-FAN VA YARATUVCHANLIK MEVASI

17–18-MAVZU: FAN–TEXNIKA TARAQQIYOTI VA INSON MA'NAVIYATI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Fan-texnika taraqqiyotining inson ma'naviyatiga ta'siri bormi?
2. Deyarli barchangiz texnika yutuqlaridan biri bo'lgan mobil telefonidan foydalanasiz. Telefon bilan madaniyat, ma'naviyat o'rtasida qanday muvozanat bor?
3. «Yapon mo'jizasi» yoki «koreys mo'jizasi», «yapon xarakteri», «koreys tabiati» degan iboralar haqida fikr yuriting.
4. Yangi texnologiyalar – biz ularning evaziga nimalarga erishdik va nimalarni boy beryapmiz?
5. Quyidagi rasmlarga e'tibor bilan qarang va o'z fikringizni bildiring. Ushbu rasmlarda berilgan jihoz va buyumlarni texnika yangiliklari bilan bo'g'liq joyi bormi? Fikringizni bildiring.









Mulohaza uchun

Kompyuterlar, keng imkoniyatli smartfonlar, elektron gadjet va divayslar bilan hayotimiz yanada oson, tezkor, qulay va qiziqarli. Ammo axborot texnologiyalarining hayotimizdagi o‘rni mustahkamlanishi bilan ayrim narsalarni boy ham beryapmiz. Keling, axborot texnologiyalari hayotimizni yaxshi va yomon tomonga qanday o‘zgartirganini o‘ylab ko‘raylik.

1-ijodiy faoliyat

1. Infografikada keltirilgan yutuq va yo‘qotishlarga qo‘shimcha misollar keltiring.
2. Nuqtalar o‘rniga quyidagi so‘zlarni qo‘yib o‘qing. Shakllangan har bir gapga izoh bering.

Axborot texnologiyalari rivojlangan sari...


Ma’lumot tez aylanadi, mehnat unumdorligi oshadi, elektron hujjat almashinuvi yuzaga keladi, ma’lumot olishda masofaning chegarasi bo‘lmaydi, lekin shu bilan birga, *tobelik kuchayadi, diqqat bo‘linadi, yuzma-yuz muloqot ahamiyatini yo‘qotadi, salomatlikka putur yetadi, vaqtni yo‘qotamiz.*

Yana qanday so‘zlarni qo‘yish mumkin?



Ma'naviyat xazinasidan

Luqmoni hakim aytadiki, odam uchun dunyoda bilimdan yaxshiroq do'st yo'q va bilim xazinadan ham afzaldir. Chunki sen xazinani ehtiyot qilishing kerak. Bilim esa seni qutqaradi va muhofaza qiladi.



2-ijodiy faoliyat

Hayotingizni fan-texnikaning quyidagi yangiliklarisiz tasavvur qila olasizmi? Fikringizni asoslang.



Bilasizmi?

Tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar kuniga o'rtacha 3 soat-u 49 daqiqa vaqtlarini smartfonda o'tkazar ekanlar. Bir kunda 8-10 soat faol bo'lishimizni hisobga olsak, bu vaqtning deyarli yarmini smartfonga tikilib o'tkazish juda ko'p emasmi?

Mulohaza uchun

Inson doimo yangilikni, farovon hayotni orzu qiladi. Siz eng so'nggi rusumli telefon, kompyuter yoki boshqa texnika mo'jizalariga ega bo'lishni xohlaysiz. Aynan shu orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, kishilarning texnika asrida texnologiyalardan oqilona foydalanib hayot kechirishi uchun qanday ma'naviy omillar zarur bo'ladi?

Ma'naviyat xazinasidan

KIBER XAVFSIZLIKNING 10 QOIDASI



1. Har kimga ishonmang.
2. Shubhali foydalanuvchilarni blok-lang.
3. Notanish foydalanuvchilar bilan suhbatlashmang.
4. Shaxsiy ma'lumotlarni o'rtoq-lashmang.
5. Ko'rganingiz yoki o'qiganingizga ishonmang – ma'lumotlarning haqiqiyligini tekshiring.
6. Internetda yozishdan avval o'ylang – haqorat, tahdid, g'iybat va yolg'on axborotni yozishdan tiyiling.
7. Ishonchsiz fayllarni yuklamang, ular ma'lumot o'g'irlovchi viruslar bo'lishi mumkin.
8. Internetda shaxsiy karta yoki bank hisob raqamlari haqidagi ma'lu-motlarni hech kim bilan o'rtoqlashmang.
9. Siz haqingizda ma'lumot to'playdigan viktorina va o'yinlarda ishtirok etmang.
10. Internet tarmog'idan foydalanganda «Tekin pishloq qopqonda bo'ladi» degan o'gitni unutmang.

3-ijodiy faoliyat

1. Bugun texnologik jihatdan o‘zgarishlar davrida yashayapmiz. Siz 100 yil avvalgi hayotni tasavvur qiling va bugungi hayot bilan solishtiring. Qanday farqlarni topdingiz?
2. Sizningcha, bu o‘zgarishlarning bosh sabababchisi nima? Urushlar, madaniyat va tabiiy o‘zgarishlardan tashqari yana qaysi omillar hayotimizni o‘zgartiradi?
3. Ilm-fanning qanday ulkan yutuqlari bugungi hayotimizga ta’sir qilgan?

Topshiriq. Quyidagi suratlarni ikki guruhga ajrating. Ularning biriga insonlar hayotiga ijobiy, boshqasiga insonlar hayotiga salbiy ta’sir qilgan buyumlarni tanlang. Bu buyumlarning ta’siri haqida fikrlaringizni yozing.










Mulohaza uchun

O'tmishga nazar tashlasangiz, Abbosiylar davlatining poytaxti hisoblanmish Bag'dod ilm-fanning markaziga aylanganligining guvohi bo'lasiz. Abbosiylar sulolasining tarixda nom qozongan xalifasi Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun ilm-fanning fidoyi homiylari bo'lishgan. Ularning tashabbusi bilan «Hikmatlar uyi» tashkil etilib, ko'plab qadimiy qo'lyozmalar tarjima qilingan. Ayni shu davrda matematika, astronomiya, falsafa, tibbiyot, geografiya fanlarida insoniyat tarixini o'zgartirgan tadqiqotlar amalga oshirilgan, ilm-fan yuksalgan.




IX-X asrlarda Movarounnahr Sharqdagi yirik ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylangan. X asr oxiridan Xorazmda «Dorul hikma va maorif», keyinchalik «Ma'mun akademiyasi» bilan nom qozongan olimlar kengashi tashkil qilinib, bu ma'rifat bo'stonida ko'plab din, millat vakillari ahillikda ilm-fan bilan mashg'ul bo'lishgan. O'sha yillardayoq Vatanimiz sarhadlarida olamshumul kashfiyotlar qilinib, yuksak darajada takomillashtirilgan, rivojlantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yillik yubileyi keng nishonlandi. Hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi sifatida qayta tiklandi. Hozirda mamlakatimiz olimlari uzoq o'tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosni faol o'rganishib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan ilm-fanni boyitishga munosib hissa qo'shmoqdalar.







4-ijodiy faoliyat

1. Buyuk allomalarning avlodlari ekanligimizdan faxrlanasizmi? Fikringizni misollar bilan izohlang?
2. Hayotimizni yaxshi va yomon tomonga o‘zgartirgan kashfiyotlar ro‘yxatini tuzing.
3. Ularning turmush tarzimizga ta’sirini yozing.

Bilasizmi?

Bilimda tengdoshlaridan o‘zib ketgan...

Hofizi Abruning «Zubdat ut-tavorix» deb nomlangan tarixiy asarida shunday ma’lumot beriladi: *«Amir Sohibqiron maktabda o‘z tengqurlaridan saboqda o‘zib ketardi. Balog‘at yoshiga yetguncha ilm, adab, xat va suxanvorlik kasb etdi. Undagi teran bilim shijoatga payvand bo‘ldi va shundan so‘ng amirlik mansabini egalladi».*

«Amir Temur xazinasi»dan

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Qaysi omil insoniyat taraqqiyotining jadallashuviga xizmat qiladi?
2. «Sharq uyg‘onish davri»da qilingan qanday muhim yangiliklar ilm-fan rivojiga xizmat qilgan?
3. Dunyo taraqqiyotida matematika, falsafa, tibbiyot va geografiya fanlarining o‘rganilishi qanchalik muhim ahamiyatga ega? Bu bizga nima berdi? Fikringizni misollar bilan izohlang.
4. Taraqqiyot va ilm-fan o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

19-MAVZU: ILM VA ZAKOVAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yoshi ulug‘lar «Ilm – inson ziynati, saodat eshigining kaliti» degan naqlni ko‘p aytganlarida nimani nazarda tutadilar?
2. «Ixtirochi», «kreativ» yoki «ijodkor» degan so‘zlarga duch kelsangiz nimani o‘ylaysiz?
3. Ilm, zakovat va ijodkor atamalarini qanday mohiyat birlashtiradi?
4. Ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega insonda qanday fazilatlar bo‘ladi?
5. Qanday qilib kreativ fikrlash mumkin?
6. Jadid ota-bobolarimiz haqida eshitganmisiz? Ularning maqsadlari nima bo‘lgan?
7. Dunyo ilmini rivojlantirgan qaysi olimlar haqida bilasiz?
8. Ilm inson hayotini qanday o‘zgartirib yuborishi mumkin? Insoniyat hayotini-chi?

Mulohaza uchun

Beruniy – ilk analog kompyuterlar ixtirochisi




Volvelle yoki «g‘ildirakli tasvir» – bugungi kompyuterlar va elektron kitoblarning ajdodi. Harakatlanuvchan g‘ildirak va turli qismlardan iborat volvellelarda asosan ish boshqaruvida, xo‘jalik hisob-kitobida keng foydalanilgan, unda astrologiya va geografiya faniga oid xaritalar tasvirlangan. Volvelle o‘z navbatida analog kompyuterlarning ilk qog‘oz namunasi hisoblanadi. Volvellelarning rivoji va takomillashtirilishi jahon olimlari tomonidan buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy nomi bilan chambarchas bog‘lanadi.



1-ijodiy faoliyat

1. Beruniyning yana qanday ixtirolarini bilasiz?
2. Beruniy yaratgan globus haqida ma'lumot to'plang.
3. Beruniy nechta tilni bilgan va uning qo'shimcha tillarni bilishi olamshumul izlanishlariga qanday ta'sir etgan? Qo'shimcha manbalardan foydalanib, shu haqida ma'lumotlar to'plang.

Mulohaza uchun



Ilm bilan aziz bo'lgan olim

Albert Eynshteynning yoshlik yillari og'ir o'tgan. O'sha davrlarda ba'zi hukmron doiralar Eynshteynga nisbatan tazyiq o'tkazishadi va oqibatda u bir muddat muhojirlikda umr kechirgan.

Bu sinovlar uning yetuk olim bo'lib yetishishiga to'sqinlik qila olmadi. Eynshteyn optik tola va telekommunikatsiya tarmoqlarida, quyosh batareyalari rivojiga turtki bo'lgan fotodiod qurilmasini yaratib, insonlar turmushini o'zgartirib yuborgan. Buning uchun olim 1921-yilda Nobel mukofotini qo'lga kiritgan.

2-ijodiy faoliyat

1. Nobel mukofoti haqida nimalarni bilasiz? U mukofot qaysi fanlar uchun beriladi?
2. Eynshteyn o'z faoliyati davomida asosan qaysi fanni rivojlantirishga harakat qilgan?

Bilasizmi?

Umar Xayyom 1077-yil $(a+b)^n$ binom yoyilmasining umumiy formulasini kashf etgan. Nasriddin at-Tusiy 1265-yil $(a+b)^n$ binom yoyilmasini istalgan n-natural son uchun isbotlagan, koeffitsiyentlarni uchburchak shaklda jadval ko'rinishida keltirgan. Nyuton esa bu qonunni umumlashtirgan.

Mulohaza uchun

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonning bir guruh ziyolilari o‘z yurtini rivojlantirish, taraqqiy ettirish yo‘lida ilm-fan va ma’rifatni qo‘llab-quvvatladilar. Ular bu ijtimoiy-siyosiy va intellektual faol harakatlari tufayli «jadidlar» deb atalganlar. Jadidlar jamiyatda ma’rifatni targ‘ib qildilar, til va adabiyot, san’atni rivojlantirishga intildilar, ilm-fan yutuqlarini qo‘llashni yoqlab chiqdilar.

Jadidlar erkin va farovon jamiyatni qurish va bu jamiyatda ilm-ma’rifatni rivojlantirish yo‘lida yangi maktablar, gazeta va teatrlar tashkil qilganlar.

Oradan uzoq yillar o‘tib, ularning orzu-istaklari ro‘yobga chiqdi. O‘zbekiston mustaqil va ilm-fan taraqqiy etayotgan davlatga aylandi. Jadid bobolarimizning nomlari qayta tiklanib, meroslari chuqur o‘rganilmoqda.

3-ijodiy faoliyat

1. Jadidlar nima sababdan ilm-fan va ma’rifatni qo‘llab-quvvatlaganlar?
2. Til, adabiyot, san’at va ilm-fanning rivoji, jamiyatda hammaning teng bo‘lishi nima uchun muhim sanaladi?
3. Mamlakat yoshlarining xorijda tahsil olib qaytishlari ilm-fan rivojiga qanday xizmat qiladi?

Ma’naviyat xazinasidan

Jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Uni qancha ko‘p o‘rgansak, bugun bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV

Topshiriq. Kutubxona yoki internet tarmog‘idan O‘zbekistonda jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan ajdodlarimiz to‘g‘risida ma’lumot to‘plang. Ularning faoliyati va tashabbuslariga oid taqdimot tayyorlang.

Ma’naviyat xazinasidan



Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur.

Mahmudxo‘ja Behbudiy

Bilasizmi?

Buyuk vatandoshlarimiz, dunyo tanigan allomalarimiz – Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Umar Xayyom, Nasriddin At-Tusiy, Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Al-Koshiy, Muhammad Ali Qushchi va boshqalar hozirgi zamon hisoblash tizimini kashf etdilar, manfiy va irratsional sonlar bilan ishlash yo‘llari, ildiz chiqarish, kvadrat tenglamalarni yechish usullarini topdilar.

Mulohaza uchun

O‘qib qadr topgan yigit haqida hikoya

Zafarbek ta’limni har qanday chigal vaziyatlar va muammolardan qutulish uchun xaloskor deb bildi. Maktabda va maktabdan tashqari vaqtlarda ham tinmay dars qildi, ko‘plab kitoblar o‘qidi. U do‘stlari bilan koptok tepishdan ham voz kechdi. Yillar ketidan yillar o‘tdi, Zafarbek maktabni yuqori baholar bilan tamomlab, universitetga o‘qishga qabul qilindi.

Talabalik yillarida Zafarbek 18 soat bilim olish bilan mashg‘ul bo‘ldi, uni faqat kutubxonadan topish mumkin edi. Otasi bergan pulni tejash uchun Zafar-

Respublika Ta'lim Markazi
edurtm_uz



bek gohida nonushta, gohida tushlikdan voz kechdi. Ko'p o'tmasdan u shahar kutubxonasidan qo'shimcha ish topdi.

Universitetni tamomlar mahali Zafarbekni xorijiy universitetga magistratura yo'nalishiga o'qishga qabul qilishdi. Ilm olish bilan o'tgan ikki yil uning hayotida tub burilish yasadi. U ko'nglida ulkan maqsadlar bilan yurtga qaytdi. Nufuzli ish uchun suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan Zafarbek Niyozov mas'uliyatli lavozimga tayinlandi. Bugun uning hayoti onasi istaganidek farovon va to'kin.

4-ijodiy faoliyat

1-topshiriq:
Yurtimiz mutafakkirlarining jahon ilm-fanining rivojlantirishga qo'shgan hissalarini aniqlang: aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, din va pedagogika yo'nalishlariga ajrating. Ularning kesishgan nuqtalarini toping.


2-topshiriq. Quyidagi fikrlarni davom ettiring:

1) Agar Zafarbek _____, uning hayoti farovon va to'kin bo'lmas edi.
2) Ilm insonga _____ga yordam beradi.
3) Mas'uliyatli lavozimga doimo ilmli insonlar tayinlanishi lozim, chunki _____.
4) Qiyinchilikka duch kelsangiz chekinmang, chunki ___.
5) Kimdir seni kamsitsa, tushkunlikka tushma. Sababi ____.
6) Kuchli istak – maqsadga yetish uchun muhimdir. Shu bois____.

Ma'naviyat xazinasidan

Kishining ilm-u fanda, mehnatda kamolot cho'qqisiga erishishi – hosil, ushbular orqali el nazariga tushishi – hosil to'plangan xirmondir.

Bilasizmi?



Jahon hamjamiyati Abu Ali ibn Sinoni shunday ta'riflaydi: «Genial insonlarning qoldirgan izlari – asrlar osha yashab kelayotgan fan, adabiyot va san'atning buyuk durdonalarida aks etib, ular barcha xalqlar uchun ham umumbashariy xazinadir. Bu madaniy va ma'naviy meros insoniyat uchun bitmas-tuganmas boylik hisoblanib, umuminsoniy hamkorlik istiqbollarini ochib beradi. Ibn Sino ham o'zining ijodi hamda yaratgan asarlarining ahamiyati jihatidan butun insoniyatga tegishli bo'lib, uning faoliyati haqiqat va aql-idrok talablariga asoslangan edi».

Mulohaza uchun

Hozirgi davr insondan ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishni taqozo etmoqda. Biz tariximiz, ajdodlarimizning ma'naviy merosi – ilmiy kashfiyotlari, tadqiqot va izlanishlari, dunyo ilm-fanining rivojlanishiga qo'shgan hissalarini boyitishimiz, rivojlantirishimiz kerak. Shu bilan birga, bu noyob merosni kelajak avlodga yetkazishimiz zarur. Bugungi kunda jahon intellektual maydonida raqobatga kirisha oladigan yuksak salohiyatli yoshlargina muvaffaqiyatli va baxtli hayotni qura oladilar.

Ma'naviyat xazinasidan

Insonning qadri ilm bilan yuksaladi. Ilmli kishi hodisalarga xolis baho beradi, talabchanlik va uddaburonlikni o'rganadi.

20–21-MAVZU: TIL BILGAN – DUNYO KO‘RADI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ona tilini yaxshi bilish insonga qanday imkoniyatlar beradi?
2. O‘z tilini yaxshi bilmagan inson nega o‘zga tilni o‘rgana olmaydi?
3. Chet tilini bilishning qanday yaxshi tomonlari bor?
4. Til o‘rganish inson hayotini qay darajada o‘zgartirib yuboradi?
5. Mahmud az-Zamaxshariyning arablar oldidagi xizmati nimada ekanligini bilasizmi?

Mulohaza uchun

Jahongir O‘zbekistonda tadbirkor sifatida tanilgan. Muvaffaqiyatga erishish uchun avval uning haqini to‘lash kerak – Jahongir yaxshi hayotga mashaqqatli mehnat va ilm evaziga erishdi.

U bolaligidan mustaqil bo‘lishga, xususan, moliyaviy jihatdan qaram bo‘lmaslikka intilgan. Jahongirning orzusi – oilasi farovon va to‘kin yashashi edi. Hayot uni turli yo‘llar bilan sinadi. O‘quvchilik yillari maktabdan bo‘sh vaqtlari, ayniqsa, ta’til kunlarida u qiyinchilikdan cho‘chimadi, oz miqdorda bo‘lsa-da pul topib oilasiga ko‘maklashdi.

Jahongir maktabda a’lo baholarga o‘qidi. 17 yoshida unda ajoyib g‘oya tug‘ildi – bo‘sh vaqtida bolalarga ingliz tilidan ta’lim berish. Aflotunning «O‘rgatib – o‘rganaman» degan mashhur fikri isbotini topdi. Tajriba va bilim birlashib, Jahongir talaba bo‘la turib 22 yoshida o‘z biznesiga asos soldi. Ammo bu muvaffaqiyat bilan birga kutilmagan sinovlar ham keldi. Shu yili uning otasi qazo qildi,



oila mas'uliyati yelkasiga tushdi, moliyaviy qiyinchiliklar boshlandi. Unda kuchli ishonch bor edi – mashaqqat imkoniyatning boshi, qanchalik og'ir bo'lmasin, albatta quyosh chiqadi.

«Cambridge» o'quv markazi asoschisi Jahongir Po'latov mashaqqatlarni tajriba deb biladi. Xato – to'xtash uchun sabab emas, bu yana urinib ko'rish uchun imkoniyat. U o'zi qilayotgan ishni yaxshi ko'rgani uchun undan huzurlanadi, har kuni 20 daqiqa mutolaa uchun vaqt ajratib, maqsadlarini tartiblab oladi. Yosh tadbirkorning fikricha, xorijga chiqqanda yangi g'oyalarni o'rganib, Vatanda tatbiq qilish kerak.



1-ijodiy faoliyat

1. Yuqoridagi matnga sarlavha tanlang.
2. Sizningcha, hayotda mashaqqatlar nega kerak? Ularni qanday yengib o'tish mumkin?
3. Quyidagi savollar asosida insho yozing.
   – 25 yoshingizda siz o'zingizni qayerda tasavvur qilasiz? Kim bo'lasiz va nima ish bilan mashg'ul bo'lasiz?
   – Maqsadingizga erishish uchun Jahongir Po'latovdagi qaysi fazilatlar sizga yordam beradi?
   – Og'ir damlarda insonga omon qolishi uchun nimalar yordam beradi?



Ko'p til bilish – bitta qulfga tushadigan bir necha kalitga ega bo'lish degan gapdir.
Fransua Volter

Mulohaza uchun

Qo‘shimcha til bilish va yaxshi hayot

Ali o‘z ona tilida ham, chet tilida ham ravon so‘zlasha oladi. Shuning uchun u yaxshi maoshli lavozimga ishga qabul qilindi.

Vali esa vaqtinchalik taom yetkazib berish xizmatida ishlamoqda.

Ali chet tilini bilgani uchun o‘zining tengdoshlaridan ikki baravar ko‘p maosh oladi. *Chunki qo‘shimcha til bilgani uchun unga alohida maosh* to‘lanadi.

Vali maktabda biron bir chet tilini o‘rganmaganidan afsusda.



Ali ishlaydigan kompaniyadagi yoshlar mahalliy va xorijiy tillarni yaxshi biladilar. Natijada ular hamkorlar bilan til topishib, yirik bitimlar imzolashmoqda.

Vali chet tilini yaxshi bilmagani uchun shahardagi o‘zi tanlagan xorijiy firmaga ishga kira olmadi.

Yaqinda Ali 7,5 ball bilan IELTS guvohnomasiga ega bo‘ldi. Endi unda dunyoning eng taniqli universitetlarida imtiyozli ravishda o‘qish imkoni bor.


2-ijodiy faoliyat

Quyidagi savollarga munosabat bildiring.


1. Siz yuqoridagi qaysi qahramonga havas qildingiz? Nima sababdan?
2. Nima deb o‘ylaysiz, agar Ali va Vali ishga kirish uchun bitta kompaniyaga murojaat qilsalar, u yerga bitta nomzod zarur bo‘lsa, kompaniya kimni tanlaydi? Nima sababdan?
3. Siz qo‘shimcha til o‘rganishning qanday yo‘llarini bilasiz?
4. Chet tillarni o‘rganishda bugungi texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?



Mulohaza uchun



Buyuk mutafakkir Mahmud Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug‘rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yozgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.



Arab tilshunosligi va grammatikasiga oid asarlari Mahmud Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, Makka shahrida yozilgan «Mufassal» (1121-yil) nomli asari arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan yirik qo‘llanmadir. U Sharq va G‘arbda shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi.




Mahmud Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o‘lmas asarlari butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan «Ustoz ul-arab val-ajam» («Arablar va g‘ayri arablar ustozi»), «Faxru Xarazm» («Xorazm faxri») kabi sharafli nomlar bilan ataganlar.

Bilasizmi?

«Dunyo ilmiy hamjamiyati meni tinglaydi!»

O‘zbekistonlik iqtisodchi Raufxon Salaxo‘jayev 2017-yilda so‘nggi besh yil ichida jahondagi eng kuchli yosh iqtisodchilar yuztaligiga kiritildi. U 1987-yilda Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida tug‘ilgan. Mazkur reytingdan asosan Harvard, Yel universitetlari, London iqtisodiyot maktabi kabi nufuzli ta’lim muassasalari bitiruvchilari joy olib kelgan. O‘zbekistonlik olim mazkur reytingdan joy olgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi yagona iqtisodchi bo‘ldi.



Raufxon bolaligidan kitoblarga mehr qo‘ydi, xorijiy tillarni o‘rgana boshladi. Ilk o‘qigan badiiy kitobi – «Robinzon Kruzo» unga bir haqiqatni anglatdi: qunt va harakat bo‘lsa, inson har qanday sharoitda ham muammolarni hal qiladi, maqsadiga yetadi. Kichik orzular kattalashib, ulkan maqsadlarga aylandi.

Ilm olamiga kirgach, Raufxon oldiga yuksak maqsad qo‘ydi – 40 yoshga- hamjamiyati quloq tutuvchi jahon miqyosidagi olim bo‘lish. Yangi bilimlarni izlash, o‘zlashtirish uchun Raufxon ilmiy maqolalar yozadi. Til bilishi orqasidan jahonning taniqli olimlari bilan tillashadi, yangiliklarni kuzatib boradi. Uning hayotdagi shiori: «Nashr etish yoki halokat». Jahonning taniqli iqtisodiy nashrlari yosh olimning maqolalarini chop etadi, xalqaro ilmiy kengashlarda ular qizg‘in muhokama qilinadi.

3-ijodiy faoliyat

Quyidagi savollarga javob topib, bu ma’lumotlar asosida infografika tayyorlang.

1. Raufxon Salaxo‘jayevdagi qaysi xislatlar uni jahonning eng yosh olimlari qatoriga qo‘shdi?
2. Yosh olim hayotida ijobiy o‘zgarishlar yasagan voqealarni aniqlang.

Muhokama uchun savol. Raufxon Salaxo‘jayevning «Nashr etish yoki halokat» shiorining mohiyati nimada deb o‘ylaysiz?

Quyidagi matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni topib qo‘ying. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov kitobning . . . ekanini ko‘p takrorlaganlar.

Yetmish yoshga kirgan adib yoki olim o‘zining kitobida ana shuncha yillik umrning . . . ni ifodalaydi.

Uni mutolaa qilayotgan 15 yoshli inson esa oldida turgan yarim asrlik hayotni avvaldan . . . . Kitob – bir necha o‘n yillik . . . mevasi.

Jahon miqyosida eng ko‘p foydalaniladigan Webster lug‘ati yaqin-yaqingacha juda noyob kitob hisoblangan.

Bu zalvorli kitobni . . . uchun uning muallifi . . . ga 36 yil kerak bo‘lgan ekan. Bir kitobni tayyorlash uchun inson umrining eng . . . ni sarf qiladi.

Kitoblardagi . . . larni anglash uchun esa kuchli irodaga ega bo‘lish lozim.

Fransuz faylasufi Blez Paskalning ta’sirli ma’ruzasidan so‘ng universitet . . . dan biri unga «Agar menda sizning . . . ingiz bo‘lganida bormi, men ham . . . odam bo‘lar edim», dedi.

«Sen avval kuchli odam bo‘l, ana shunda mening . . . senda ham bo‘ladi», dedi faylasuf tabassum bilan.

Taniqli skripkachi Fritz Kreysler navbatdagi konsertidan so‘ng sahnada gulduros . . . ni qarshi olar ekan, muxlislaridan birining gul berayotib aytgan so‘zlarini eshitdi.

«Skripkani siz kabi chalish uchun umrimni . . . bo‘lar edim!» «To‘g‘ri qaror! Men ham xuddi shunday . . . !» javob berdi musiqachi.

Foydalanish uchun so‘zlar:

kuchli, kuzatuvlar, sakkizinchi mo‘jiza, anglaydi, olqishlar, bag‘ishlagan, Noh Vebster, qilganman, donolik, navqiron yillari, talabalari, aql-zakovat, yaratish, tajriba va kechinmalari.



Mulohaza uchun

Namangan viloyatida Isxoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internati 2017-yilda tashkil etildi. Mazkur maktabda ingliz, nemis, fransuz, rus, arab, xitoy, koreys tillari o‘qitiladi. U yerda Toshkent davlat sharqshunoslik, O‘zbekiston davlat jahon tillari hamda Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Maktab-internatda o‘quvchilar 7 ta xorijiy tillarni o‘rganish bilan birgalikda quyidagi to‘garaklarga ham qatnashadilar: «Speaking» (ingliz tili), «Hot English» (ingliz tili), «Parlez – vous francais!» (fransuz tili), «J»apprens le francais« (fransuz tili), Arab tili, «Men va mening dunyom», «Linguist» (nemis tili), «Dolmetscher» (nemis tili), «Русская речь», «Qiziqarli matematika», «Yosh qalamkash». Maktabni a’lo baholarga bitirgan o‘g‘il-qizlar oliy o‘quv yurtlariga imtihonsiz – imtiyozli asosda qabul qilinadi.



22–23-MAVZU: VAQT – BEBAHO NE'MAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Siz vaqtingizni qanday taqsimlaysiz?
2. Nima uchun vaqtni taqsimlash kerak?
3. «*Vaqtingiz bormi? Vaqtingiz bemalolmi? Vaqtim yo'q*» degan so'zlar qanday vaqtlarda ishlatiladi?
4. Vaqtni boshqarib bo'ladimi? Fikringizni asoslab bering.
5. Insonlarda yuksak ezgu fazilatlar shakllanishida vaqtning aloqadorligi bormi?

Mulohaza uchun



Essiz umr...

Hayot ulug' ne'mat, u tufayli umrlar mazmundor, go'zal, ibratli. Lekin ayrim shunday taqdirlar, sulolalar borki, yo alhazar...

...Bobo otasini ranjitib, hayoti davomida birisi ikki bo'lmay dunyodan o'tib ketdi. Ota o'z qiblagohining ko'nglini qoldirgani bois, butun umr vijdon azobida qolib, olamdan ko'z yumdi.

Farzand otasiga qo'l ko'targani sababli, «oq bo'lgan». Nabirasi esa – turli yomon ishlar bilan shug'ullangani bois, hozirda qamoqda o'tiribdi.

... Essiz, omonatga xiyonat, zoye ketgan imkoniyat, bekorga sarf bo'lgan vaqt, qadriga yetilmagan ne'mat... Essiz, shuncha umrlar...

Isnodga qolgan sulola...



1-ijodiy faoliyat

1. Hayot – ulug‘ ne’mat deganda nimani tushundingiz? Bu ne’matning shukronasi qanday amalga oshiriladi?
2. Vijdon azobi va yo‘qotilgan vaqt o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
3. «Omonatga xiyonat, zoye ketgan imkoniyat, bekorga sarf bo‘lgan vaqt» degan fikrga qo‘shimcha misollar keltiring.
4. Umr intihosida «Essiz, shuncha umr» degan dashnom va nadomatga qolmaslik uchun nima qilish kerak?

Ma’naviyat xazinasidan

Ko‘rdimki, vaqtini «essiz», «qaniydi», «koshki»lar bilan o‘tkazgan kishining umri eng qisqa ekan.

Najmiddin Kubro



Mulohaza uchun

Umr – omonat, sinov, imkoniyat, ne’mat. Omonatligi shundaki, umr – ato etilgan ishonch bo‘lgani bois, unga xiyonat qilib bo‘lmaydi. Sinov ekani – hayot yaxshi-yomon, xursandchilik va g‘amgin kunlardan iborat, uni faqat sabr-u toqat, sa’y-harakat orqali yengib o‘tish kerak.

Insonlarni muvaffaqiyatli harakat qiluvchi yoki muvaffaqiyatsiz ishlovchi shaxslar toifasiga ajratishimiz mumkin. Muvaffaqiyatli ishlovchi insonlarning siri vaqtdan unumli foydalanish uquviga egaligidadir. Vaqtdan unumli foydalanish inson tafakkuriga bog‘liq jarayondir. Inson tafakkuri orqali fikrlaydi, muammo paydo bo‘lganda esa fikrlash jarayoni faollashadi.

Yon-atrofdagilarga foydamiz tegmasa, demak, vaqt behuda ketibdi.

Kunni rejalashtirish yaxshi. Biroq muhimidan nomuhimini farqlay bilmoq kerak. Muhimi, asosiy vaqtni ajratib, behuda yumushlarga o‘ralashib qolinmasa, vaqt barakali bo‘ladi.

Umrning hamma soatlarini foydali va kerakli mashg‘ulot bilan to‘ldirish asnosida g‘am-alam bosh suqadigan joy qolmaydi. Vaqt mazmunli va foydali o‘tadi.

Vaqt hayot demakdir. O‘tayotgan har daqiqa-yu soniya, soat, kun inson umrining xatosiz o‘lchovidir.

Vaqt – buyuk tarozi. Kim bo‘lishingiz va yoshingiz, daromadingiz va e’tiqodingizdan qat’i nazar vaqtingiz chegaralangan. Shuning uchun hayotda qancha vaqtning borligi emas, uni qanday sarflashning ahamiyati muhim.

Muvaffaqiyatsizlikning bosh sababi. Zarur ishning kerakli vaqtda qilinmasligi. Juda band odam ham vaqtni taqsimlashda donolik qilsa, muvozanatni saqlashi, salomatligi yoki hayotini himoya qilishi mumkin.



2-ijodiy faoliyat

Quyidagi savollarga javob berib ko‘ring.

1. Odatda, insonlar eng ko‘p yo‘qotadigan, shu bilan birga ularga eng ko‘p asqotadigan narsa nima?
2. Kishi hayotida ko‘pincha nimadan qarzdor bo‘ladi?

Javoblaringizni tekshiring.

Bu: kishilar tomonidan behudaga sarflangan vaqt hamda o‘zlariga tegishli bo‘lmagan fursat.

Vaqtdan. Chunki inson uchun vaqt bir paytning o‘zida – boy berilgan fursat, qadriga yetilmagan ne’mat, foydalanilmagan imkoniyat bo‘lishi mumkin...

Bilasizmi?

Taym menejment – bu o‘z shaxsiy ish vaqtini boshqarish mahoratidir. Taym menejment – bu faqatgina zarur ishlar ro‘yxatini tuzish emas, balki vaqt va yuklamani to‘g‘ri taqsimlash hamdir.

Ma’naviyat xazinasidan

Agar bir umrning qadrini bilmoqchi bo‘lsang – kapalaklardan so‘ra.

Agar 10 yilning qadrini bilmoqchi bo‘lsang – 20 yoshida nogiron bo‘lib qolgan 30 yoshli odamdan so‘ra.

Agar 1 yilning qadrini bilmoqchi bo‘lsang – imtihondan yiqilgan talabadan so‘ra.

Bir kunning qadrini bilmoqchi bo‘lsang – hosili kuz yomg‘irida qolgan dehqondan so‘ra.

Bir soatning qadrini bilmoqchi bo‘lsang – uyiga bir soat kech kelgan tarbiyali farzanddan so‘ra.

5 daqiqaning miqdorini bilmoqchi bo‘lsang – poyezdga kech qolgan yo‘lovchidan so‘ra.

Bir daqiqaning qadrini bilmoqchi bo‘lsang – mehmon kutayotgan yolg‘izdan so‘ra.

Bir daqiqaning o‘ndan bir miqdorini bilmoqchi bo‘lsang – bemorning kasalxonaga olib kelayotgan haydovchidan so‘ra.

Bilasizmi?



Odamning quvvati to o'ttiz to'rt yoshgacha har kuni ziyoda bo'ladi. O'ttiz to'rt yoshdan qirq yoshgacha quvvat ko'paymaydi ham, kamaymaydi ham, bir xil bo'lib turadi.

Qirq yoshdan to ellik yoshgacha kishi o'zining quvvatida har yili kamchilik seza boshlaydi.

Ellikdan oltmish yoshga yetgan odam har oyda o'zida jismoniy kamchilik, quvvatsizlik sezadi.

Agar yoshi oltmishdan o'tsa, har soatda o'zida kamchilik sezadi. U yog'i og'riydi, bu yog'i og'riydi. Umrining eng qimmatli cho'qqisi qirq yoshdir.

Qirq yoshdan keyin sekin-asta pastga tushish boshlanadi.

«Sharq hikmat va rivoyatlari» kitobidan

Mulohaza uchun



Zohidjon maktab ostonasiga birinchi qadamini qo'ygan kuni onasi unga «Bolajonim, umringni zoye ketkazma, har bir daqiqadan unumli foydalan. Umr oqar daryoga o'xshaydi... Undan oqilona foydalanishing kerak» deb qattiq tayinladi. Zohidjon onasining ko'zidagi ishonch, shu bilan birga xavotirni ko'rib, masala jiddiy ekanligini angladi.

Maktabni a'lo baholarga bitirdi. O'z ona tilini mukammal bilish bilan birga, arab, fors va boshqa turkiy tillarni, ingliz tilini o'rgandi, oliy ta'limni ham imtiyozli tugatdi. Ta'lim sohasida ishlarini davom ettirdi. «Umr oqar daryo – uni zoye ketkazmaslik» uning hayotiy shioriga aylandi.

Bugun u 65 yoshni qarshilar ekan, 100 dan ortiq kitoblar, 500 ga yaqin maqola va tezislar hamda ko'plab ilmiy monografiyalar yozishga ulgurdi. 20 dan ortiq shogirdlarni yetishtirdi. Professorlik darajasiga erishdi. Bu uning tinimsiz va mashaqqatli mehnati, uyqusiz tunlari, izlanishlarining mahsuli edi.

1-ijodiy faoliyat

1. Zohidjon onasining o'gitlariga qanday amal qildi?
2. Kattalarning o'gitiga amal qilish qanday natija berar ekan?
3. Maktab partasidan ... professorlik darajasiga qadar bosib o'tilgan umrni *«har bir daqiqasidan unumli foydalanilgan»* deyish mumkinmi?

Ma'naviyat xazinasidan

Inson uchun eng zarur narsa – salomatlik, badavlatlik va omonlik. Yoshlikda ilm o'rganish, qariganda shu ilmdan foydalanish kerak.

Vaqtimiz chegaralangan, uni munosib sarf qiling.







2-ijodiy faoliyat

1. **Vaqtingizni 7 kunga taqsimlang.**
   Qarshingizda turgan yetti kun yoki bir oyda nimalarga ulgurish kerak? Kundaligingizga 30 daqiqa, 1 soatlik qismlardan iborat rejalarni belgilab oling. Vazifalarni «kerak» yoki «nokerak» toifalar bo'yicha belgilang.
2. **Vaqtingiz qadri qancha?**

Mulohaza uchun

Bir necha hafta avval sayohat uchun maxsus sumka xarid qilmoqchi bo'ldim. Uzoq qidiruvdan so'ng internet do'konidan o'zimga ma'qul sumka topildi.

Uning narxi 300 ming so'm bo'lsa ham, olib kelib berishlari uchun yana 50 ming so'm to'lashim kerak ekan. Men uni xarid qilish fikridan qaytib, internetda boshqa do'konlardan izlay boshladim. Sumkani sotadigan do'kon shahar tashqarisida bo'lib, u yerga borishim uchun 1 soat vaqtim ketar ekan. O'ylab qoldim, «mening bir soat vaqtimning bahosi 50 ming so'mmi? Vaqtimni tejab 350 mingdan voz kechsammi yoki vaqt sarflab do'konga borib, sumkani 300 mingga xarid qilsammi?»

3. Bu vaziyatda nima qilish kerak?

– Pul vaqtdan qadrli bo'lishi mumkinmi?

– Vaqtning pulga nisbatan qadrini qanday aniqlash mumkin?

Ma'naviyat xazinasidan




O'tgan kun haqidagi: «Men uni qanday o'tkazdim, nimalar qildim-u, nimalarga ulgurolmadim?» – degan savollarga javob topmaguncha ko'zlaring uyquga ketmasin.

Pifagor

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. «Umr oqar daryo» iborasini mavzudagi matnlar bilan bog'lab tushuntiring.
2. Umr – omonat, sinov, imkoniyat, ne'mat ekanligini misollar bilan tushuntiring.
3. «Mening qimmatli vaqtim» mavzusida bir haftalik vaqtingizni hisobga olib, maktabdan tashqari holatda nima ishlar qilganingiz haqida kichik hikoya yozing.



V BOB. OILA VA SALOMATLIK

24–25-MAVZU: GO‘ZAL TARBIYA TAMOYILLARI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Aqlli farzandga xos qanday fazilatlarni bilasiz? Aqlli deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. «Eng birinchi yaxshilikni onangga qil» deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiyaga oid qanday qadriyatlarni bilasiz?
4. Mehmondo‘stlik qadriyatmi?
5. Qanday tarbiyani go‘zal tarbiya asosi deyish mumkin?
6. Mahmud Qoshg‘ariyning quyidagi hikmatini o‘qing va go‘zal tarbiya bilan bog‘lab bering.

«O‘g‘il dono bo‘lsa, ota rohatga yetadi».





Mulohaza uchun

Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo‘lib keldi. Bu davrda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar natijasida etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, halollik bilan kun kechirish kabi fazilatlar shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib sayqal topgan. Ayniqsa, kattalarga, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish milliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi.

Ma’naviyat xazinasidan

Kishilarning fe’l-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati, gap-so‘zi ularning xulqiga bog‘liq. Yaxshi xulq egasi bo‘lgan kishi odamlarga yaxshilik qila oladi.

Abdulla Avloniy yaxshi xulqlar qatoriga: matonat, diyonat, islomiyat, nazokat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, avf kabilarni kiritadi. «Emdi bu yaxshi xulqlarni qo‘lga olmak uchun ota-ona, muallim, ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog‘i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo‘lmak, axloqi buzuq, yomon kishilardan qochmoq lozimdur».

1-ijodiy faoliyat


1. Sizga biror do‘stingiz yoki kimdir shunchaki yordam berganmi? Gapirib bering.
2. Bozordan chiqishda bir ayolning qo‘lidagi yelim xalta yirtilib, ichidagi olmalar turli tomonga sochilib ketdi.
   Siz nima qilasiz?
   a) olmalarni yig‘ishga yordamlashasiz.
   b) yangi yelim xalta olib kelish uchun shoshilasiz.
   c) e’tibor bermay chetlab o‘tib ketasiz.
   Tanlagan javobingizni asoslang.
   Nima uchun....
   Chunki.....
   Menga ham...



3. Aziz bugun darsning birinchi soatiga biroz kechikib kirib keldi. Muallim «Nima uchun kech qolding? Uydan biroz vaqtliroq chiqsang bo'lmaydimi?» deb uni savolga tutdi. Aziz mulzam bo'lib, indamay yerga qaradi. Shu payt orqa partada o'tirgan Akmal: «Ustoz, u uyidan vaqtliroq chiqqan edi, mahallamizdagi Nazira xolaning eshiklarini oldi yaxmalak bo'lib qolgan ekan, men yur, darsga kech qolsang ustoz urishadilar desam ham, u o'sha xolaning eshigini oldini kurab, yaxdan tozalash uchun qolib ketdi», – dedi Azizning yonini olib.


a) Aziz bilan Akmalning harakatlariga baho bering.

b) Siz Azizning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz? Akmalning o'rnida bo'lganingizdachi?



Mulohaza uchun

Yaxshilik – go'zal axloqiy fazilat sirasiga kirib, inson umri davomidagi ijobiy va ezgu ishlari, munosabatlarining yig'indisini tashkil etadi. Yaxshilik – shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.



Xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar yaxshilikni yuzaga chiqarish nuqtayi nazaridan g'oyat muhimdir. Har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Balki o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

2-ijodiy faoliyat

1-vaziyat: Bekatda turgan ayollar o‘zaro gaplashib turishibdi. Ulardan biri: «Men o‘g‘limni o‘qishga kiritmoqchiman, kim bilan gaplashsam ekan?» – dedi. Ikkinchi ayol esa: «Menimcha, hech kim bilan gaplashishning keragi yo‘q, o‘g‘lingizning bilimi bo‘lsa, shundoq ham o‘qishga kirib ketadi», – dedi.

Ulardan qaysi birini huquqiy madaniyatli inson desa bo‘ladi?

2-vaziyat: Anora darsga tayyorgarliksiz keldi. O‘qituvchi uni sinf oldida izza qildi. Anora esa: «Sizning nima haqqingiz bor menga tanbeh berishga, xohlasam, darsga qatnashaman, xohlamasam yo‘q», deb javob berdi.

Ushbu vaziyatni baholang, fikringizni bildiring.

3-vaziyat: Gulnora dugonasi Saida bilan darsdan qaytayotgan edi. Saida avtobus bekatida turgan yoshi chamasi 40 lar atrofidagi ayolga salom berdi, Gulnora dugonasi salom bergani uchun, uning tanishi bo‘lsa kerak, deb xayolidan o‘tkazdi-da, u ham salom berdi. Saida yo‘lda uchragan o‘zidan katta har bir yo‘lovchiga salom berib borar ekan, Gulnoraning g‘ashi kelib: «Nima muncha salom beraverasan, nima hamma uchragan odam sening tanishlaringmi? Kimdir alik oldi, kimdir senga bu qiz nega menga salom berdi, deb taajjublanib qarab qolmoqda-ku? E borey, endi sen bilan birga yurmayman, odamni uyaltirib yubording...» – dedi.

Siz nima deb o‘ylaysiz, Saida to‘g‘ri ish qildimi?
Siz kimlarga salom berasiz?
Salomlashish fuqarolik burchmi?
Agar bu burch bo‘lsa, u qayerda qayd etilgan? Fuqarolarning jamiyat oldidagi burchlari biror hujjatda aks etishi shartmi?



Mulohaza uchun

Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaydiki, ilm cho'qqilarini egallashning muhim yo'llaridan biri – kishi o'zini hammaga do'st, yaxshilik qila olish darajasiga yetkazishdan boshlanadi. Ta'lim bilan tarbiya bir butunlikni ko'rsatadi, faqat shunga amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi.

Ibn Sino farzand axloqi haqida: «Farzand go'zal axloqli bolalar o'qiydigan maktabda tahsil olmog'i lozim. Chunki bola boladan o'rganadi», deydi. Ta'lim muassasalari farzandlar uchun go'zal tarbiya muhitini yaratib beradi.



3-ijodiy faoliyat

Bir kun Muhammad Tarag'ay bir suruv qo'yni o'g'liga berib, Samarqand bozoriga yuboradi.

Temurbekning o'zi bu to'g'rida shunday yozadi:

«Qo'ylarning hammasini ming oltinga sotib, pullarni belga bog'lab sayr qilib yurardim. Bir yerda xushovoz qalandar odamlarga so'zlab turgan ekan: qo'lida qog'oz – she'r bitilgan. U der edi:

– Shul yozuvning qadriga yetib, kim ming oltunga olsa, dunyoning oxiriga yetadi.

Himmatim jo'shib, ming oltunni qalandarga tutqazdim. U menga tikilib, nasl-nasabimni so'radi. Aytdim. So'ng tayin qildi:

– Otang oldig'a borg'il, buni uning oldida o'qi, borg'uncha ochma!

Qog'ozni keltirib, padari buzrukvorimga berdim. Ochib o'qidilar. Forscha ruboiy ekan. Ma'nosi quyidagicha:

«Zulm bilan dunyoga nom qoldirib bo'lmaydi. Dunyoga keldingmi, yaxshilik bilan nom qoldir...»

– Barakallo, og'lim, oltunlarni ko'p dono ishga sarf etibsan. Endi ming oltung'a olgan ushbu hikmatga qat'iy rioya qilmoq lozimdur!

Padari buzrukvorning aytqonlarini bosh ustida tutdim».

«Amir Temur xazinasi» kitobidan

1. Sohibqiron Amir Temur ushbu ming oltinga teng ruboiyga hayoti davomida amal qilganmi? Fikringizni asoslang.
2. Yuqoridagi hikoyani go'zal axloqiy fazilatlar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiling?

4-ijodiy faoliyat



1. Inson oilasi, mahallasi, Vatani va umuman jamiyatdan ajragan holda go‘zal tarbiya topishi mumkinmi?
2. Oila, mahalla va davlat, jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni tarbiyaga bog'lang va ushbu jadvalni to'ldiring.

Oila	Mahalla	Davlat	Jamiyat

3. Nima uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida fuqarolarning burchlari belgilab qo‘yilgan, deb o‘ylaysiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘z burchlarini bajarmagan taqdirda qanday huquqiy oqibatlar vujudga keladi?

Bilasizmi?



Barcha muqaddas kitoblarda yaxshilik, halollik, to‘g‘riso‘zlik, kechirimlilik kabi insoniy go‘zal xulq-u odoblar haqida ko‘plab fikrlar mavjud:

Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim.

Zardusht, «Avesto» kitobidan.

O‘ldirma va hech kimga zarar yetkazma, yolg‘on gapirma, buzg‘unchilik bilan shug‘ullanma, aqldan ozdiradigan ichimliklarni iste’mol qilma. Bilimli bo‘lmoq, degani doimo izlanishda, qalban yuksalishdadir.

Siddxartxa Gautama (Budda).

Kimning nutqi zikr, sukuti fikr va nazari ibrat bo‘lsa, albatta u menga o‘xshabdi.

Iso Masih.

Go‘zal xulq musulmon kishiga xos sifatlardandir. Musulmon kishi so‘kib haqorat qilinsa, u ham shunday javob qaytarmaslikka, balki tilini tiyib, sabr qilishga buyurilgan.

Agar sizni biror kishi so‘ksa, unga: «Alloh seni kechirsin», deb ayting.

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.).

26-MAVZU: TABIAT VA INSON

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yoshlarning haqiqiy ma'naviyatli insonlar bo'lib voyaga yetishlarida atrof tabiiy muhitning qanday ta'siri bor?
2. «Tabiat» va «Inson» tushunchalariga ta'rif bering.
3. «Atrof-muhit himoyasi – insonlar qo'lida», degan fikrni mazkur rasm asosida izohlang.
4. Tabiatni kimlar, necha yoshga kirgan insonlar himoya qilishi kerak, o'zi umuman, atrof-muhitni himoya qilishda kimlar mas'ul, deb o'ylaysiz?



Mulohaza uchun

Tabiatni sevish va ardoqlash – yoshga bog'liqmi?

Tabiatni sevish – vatanparvarlik tarbiyasining asoslaridan biri bo'lib, muhim axloqiy fazilat hisoblanadi. Tabiatni sevish oiladan boshlanadi. Ayniqsa, shahardan tashqaridagi oilaviy sayohatlar sizlarda tabiatni sevish va unga g'amxo'rlik ko'rsatish uchun o'ziga xos maktab bo'ladi.



Har bir inson tabiatni avaylashi, uni ehtiyot qilishi uning shu go‘zal tabiat va borliqda yashashi, musaffo va toza havodan nafas olishiga ko‘maklashadi.

1-ijodiy faoliyat

1. Bahor kelishi bilan tabiat, atrof-muhit bilan bog‘liq qanday yumushlarni amalga oshirasiz? Nima uchun?
2. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, eng qadimgi tarixiy obidalarimizda atrof-muhit va tabiat – inson o‘rtasidagi munosabatlar qanday tartibga solinganligini izohlang.
3. Milliy qadriyatlarda inson va tabiat munosabatlari qanday tartibga solinadi?

Bilasizmi?

Ne’mat vaqtida qadriga yetilsa...

Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» asarida o‘simliklarning 1118 turi, jumladan, dorivor o‘tlarning 750 turiga hamda hayvonlarning 101 turiga batafsil ta’rif beriladi. U o‘z izlanishida arab, yunon, hind, fors, so‘g‘d va boshqa tillarga oid 4500 ta o‘simlik, hayvon, mineral nomi va ulardan olinadigan mahsulotlar haqida ma’lumot to‘plab, o‘sha davr dorishunoslik atamalarini tartibga solishga katta hissa qo‘shgan.

Uning ilmiy daholigi shundaki, tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta’siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Beruniyning «Agar insonlar tabiatga nisbatan zo‘ravonlik qilib, uning qonunlarini qo‘pollik bilan buzsalar, bir kun kelib, tabiat ularning boshiga shunday kulfatlarni solishi mumkinki, buni hech qanday kuch qaytara olmas», degan hikmati bugungi global ekologik muammolarning bundan ming yil oldin bashorat qilinganini ko‘rsatadi.





Mulohaza uchun

Hozirda tabiiy jarayonlar murakkab kechayotgani uchun u jamiyat a'zolaridan yangicha fikrlashni, dunyoqarashni, axloqiy, madaniy, ma'naviy yetuklikni talab qiladi.

Tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatni o'zida mujassam etadi.



Ma'naviyat xazinasidan

Tabiatga bir saxovat qilinsa, yuz saxovat bo'lib qaytadi.



2-ijodiy faoliyat

10 ta eng muhim qoida

Insonning atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan munosabati qanday bo'lishi kerak?

– 10 ta qoidani yozing.

– O'z partadoshingiz bilan muhokama qiling. Eng zarur degan 10 ta so'zni belgilab oling.

– 1-2; 3-4 partadagi o'quvchilar o'zaro muhokama qilishadi. Ular ham eng zarur bo'lgan 10 ta so'zni belgilab olishadi.

– O'quvchilar uch katta guruhga birlashib, eng zarur degan 10 ta fikrni qoldirishadi.


Har bir guruh o'z taqdimotini amalga oshiradi, tahlillar asosida 10 ta qoidani ajratib oladi.

Har bir qoidaga o'zingiz qanday amal qilasiz? Buni aniqlab olish uchun «Men va tabiat», «Tabiatga mening munosabatim» mavzusida daftaringizga kichik hikoya yozing. Bunda, albatta, sinf tomonidan qabul qilingan 10 ta qoidani asos qilib oling.

27–28-MAVZU: TEJAMKORLIK – YAXSHI FAZILAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nimani qanday tejash kerak?
2. Ehtiyojlarimiz cheksiz, imkoniyatimiz cheklangan deganda nimani tushunasiz?
3. Vaqtni, tabiiy resurslarni, salomatlikni qanday tejash mumkin? Nimalarni tejab ishlatishni taklif qilasiz?



4. Nimani tejamaslik lozim? Masalan, vaqtni nimadan tejamaslik kerak? Salomatlikni qanday asrasa bo‘ladi? So‘zni tejash shartmi? O‘ylab ko‘ring va o‘z munosabatingizni bildiring.
5. Quyidagi matnlarni o‘qing. Undagi ma’lumotlarni tejamkorlik bilan qanday aloqasi bor?

Taniqli adib Mark Tven bo‘sh vaqtida biror nima ixtiro qilishga qiziqqan. U 1872-yildan boshlab 57 turdagi albom va bloknotlarni patentlab, 50 000 AQSH dollari foyda ko‘rgan.

Tadbirkor Jon Shnatter pitsa ishqibozi edi. Bo‘sh vaqtlarida turli pitsalar tayyorlagan. 1987-yildan u o‘zini batamom shu qiziqishiga bag‘ishlaydi va shu tariqa «Papa Johns» tamaddixonasi paydo bo‘ldi. Ayni kunda dunyoning 37 mamlakatida 4700 dan ziyod «Papa Johns» shoxobchalari bor.

Mark Tven va Jon Shnatterlar nimani tejashgan? Ular nimalarni imkoniyat boricha ishlatishgan va oqibati qanday natija bergan? Hobbi yoki shaxsiy qiziqish inson hayotiga qanday ta’sir qiladi?

Nega qiziqishlarini biznesga aylantirganlarning ko‘pchiligi muvaffaqiyatli?

Shaxsiy qiziqishingizni amalga oshirish uchun vaqtingizni nimadan tejashingiz va nima uchun sarf qilishingizni hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Bu ishingiz sizning hayotingizda qanday o‘zgarish yasashi mumkin?



Mulohaza uchun

Bir ushoq hikmati

(Ahli donishlar rivoyatidan chiqarilgan foydali xulosa)

...Qaqragan cho'l-u biyobon. Karvon o'z yo'lida sekin harakatlanmoqda. Sarbon tuyaning ustida tanovul qilib ketyapti. Nogahon, og'zidan nonning bir ushog'i yerga tushib ketdi.

Sarbon amri ila barcha uni izlashga tushdi, lekin topa olishmadi. Shunda sarbon o'sha non ushog'i tushgan joyga bir bino qurdirib, uning devoriga quyidagi so'zlarni yozdirib qo'ydi: «Bu yerga rizq tushgan, unga hurmat bildiringlar». Shu-shu, har bir karvon bu yerdan o'tayotib, bir daqiqa to'xtar, kishilar o'zlarining o'tgan umrlariga nazar tashlab, rizq-nasiba deb atalmish ilohiy ne'mat ularga qayerdan ato etilishini mushohada etishar ekan.



Qissadan hissa: Har kim bu dunyoda o'z rizqini terib yuradi. Kimningdir nasibasi shaharda sochilgan, kimningdir rizqi egasini cho'lu biyobonda kutib yotibdi, yana kimga atalgani ummon tagida... Bejiz, «Karvon ko'p, rizqi bo'lak», deya aytishmagan.

1-ijodiy faoliyat

1. Sarbonning og'zidan tushgan non uvog'ining hajmini ko'z oldingizga keltiring. Bu uvoq aslida bir qushchani ham to'ydirmaydi. Lekin nima uchun sarbon bu uvoqqa katta e'tibor qaratdi?
2. «Karvon ko'p, rizqi bo'lak», «Umringni behuda ishlar uchun zoye ketkazma» degan iboralarni tejamkorlik bilan qanday aloqasi bor?
3. Inson umrini qanday samarali o'tkazish kerak?
4. Hikoyada «uvol», «isrof qilmaslik» qanday ifodalangan?
5. Inson o'z mehnatini qadrlashi ham tejamkorlikka kiradimi?

Ma’naviyat xazinasidan



Isrof – har bir ishda haddan oshishdir. Isrof ne’matning zavolidir. U go‘zal hayotimizga tushgan qora dog‘ kabidir, isrofdan tezroq qutulish insonga halovat bag‘ishlaydi.

Mulohaza uchun



Tejamkorlik farovon turmush garovidir. Tejamkorlik oilalar farovonligi kafolatidir. Tejamkorlik haddan oshmaslik va shukronalik alomatidir. Tejamkorlik bilan kambag‘al oila boy-badavlat oilaga aylanadi. Isrof bilan esa boy oila o‘ziga faqirlik va xorlik eshigini ochadi.

Inson hayotini tabiiy va moddiy boyliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ota-bobolarimiz qadim-qadimdan bu ne’matlarni huda-behuda isrof qilmaslikni, ulardan hamisha tejab-tergab foydalanish lozimligini, aks holda, bir kunmas-bir kun uvoliga qolishimiz muqarrarligini bot-bot uqtirib kelishgan.

«Tejog‘li ish – bejog‘li ish», «Toma-toma ko‘l bo‘lar, birin-ketin ming bo‘lar» degan maqollarni ham aynan shu ma’noda yaratishgan.


Yer yuzida jadallik bilan kamayib borayotgan resurslar bor. Bular – toza suv zaxirasi, o‘rmonlar, qazib olinadigan yoqilg‘i va minerallar.

Agar ulardan biri tugab qolsa, nima bo‘ladi? Odamlar uning muqobilini izlay boshlaydilar. Ayni paytda biz ana shu ish bilan mashg‘ulmiz.


Tasavvur qiling, agar sayyoramizda yoqilg‘i yoki gaz tugab qolsa, nima qilamiz? Tejamkorlik orqaligina biz sayyoramizdagi hayotning barqarorligiga erishamiz.

2-ijodiy faoliyat

1. Quyida neft, gaz, ko‘mir va yog‘och kabi tabiiy boyliklarning umumiy qiymati jihatidan kuchli beshlikka kirgan davlatlar berilgan.
2. Ushbu davlatlarning tabiiy boyliklari va ularni qanday ishlatilishi bo‘yicha tahliliy ma’lumot tayyorlang.



3. Sanjar supermarketda sotuvchi bo‘lib ishlaydi. Xaridorlarga bir martalik yelim xaltalar avvallari bepul berilar edi. Har kuni 400-500 nafar xaridor bozorligini o‘rtacha 2-3 ta xaltada olib chiqib ketar edi.
Sanjar yelim xaltalar pullik bo‘lganidan keyin xaridorlarning ularni olish istagi pasayib ketganini sezdi. Natijada supermarketda yelim xaltalardan foydalanish 60 foizga kamaydi.
a) Nima uchun yelim xaltalar pullik qilib qo‘yildi?
b) Odamlar do‘konlarga o‘zlari bilan xaltalar olib keladigan bo‘lishdi.
Nimani tejash nazarda tutilyapti?



4. O‘zingizga tegishli narsa-buyumlar ro‘yxatini tuzing. Bunda quyidagi suratlardan foydalanishingiz ham mumkin. Ular orasidan nimani xarid qilishga ehtiyoj yo‘q edi, deb o‘ylaysiz?






5. Isrof qilmaslik uchun o'zingizga savol bering:
Nimalar xarid qilish kerak?
Ularni xarid qilish kerakmi?
Qanday qilib xarid qilingan narsalarni mas'uliyat bilan sarflash mumkin?

Mulohaza uchun



Zarur bo'lmagan narsani xarid qilishdan avval ikki marta savol bering

Yer yuzida har kuni 11 mln. tonna chiqindi hosil bo'ladi. Biz xarid qilayotgan mahsulotlarning 99 foizi iste'mol muddatiga 6 oy to'lmay chiqindi qutisidan joy olmoqda. Har bir tonna maishiy qattiq chiqindilar olish uchun – o'rtacha 71 tonna qazilma, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari xomashyosi sarf qilinadi.

Shuning uchun o'zingizga savol bering: buni xarid qilish kerakmi? Chiqindilarni hosil qilish mahsulotni xarid qilish chog'idagi qarordan boshlanadi. Har bir mahsulotni ishlab chiqarishda resurslardan foydalaniladi.

Bilasizmi?



Yelim xaltalar o'rtacha 12 daqiqa ishlatiladi. Ammo ularning batamom parchalanib yo'q bo'lishi uchun 500 yil kerak bo'ladi. Shuncha yillar davomida ular o'zlaridan zararli kimyoviy toksinlar chiqarib, atrof-muhitni zaharlaydi. Har yili 100 minglab dengiz hayvonlari yelim xaltalar qurboniga aylanadi.

3-ijodiy faoliyat

1. O‘ylab ko‘ring, nimalarni har gal yangisini xarid qilishga hojat yo‘q?
2. Daxldorlik va tejamkorlik o‘rtasida bog‘liqlik bormi? Bu fazilatlarni vatanparvarlikka qanday aloqasi bor?
3. Zokirjon tanaffus bo‘lishi bilan maktab sumkasini ochdi-da, ichidan jo‘mrakni tuzatish uchun zarur bo‘lgan texnik asboblarni oldi. Sinfdoshlaridan kimdir «Iya, santexnik ham o‘zimizdan ekan-da» degan gapiga ham parvo qilmadi. Sinfdagi ayrim bolalar unga ergashishdi. Hamma oshxonaga tushdi. Maktab oshxonasida qo‘l yuvish uchun mo‘ljallangan, buragichi buzilganligi uchun tinmay sovuq suv tomchilab turgan jo‘mrakni tuzatishga kirishdi. Suv to‘xtadi. Shunda kimdir «Shunga shunchami, tomchilab oqayotgan edi-ku, hech qayerga toshmayotgan bo‘lsa...» dedi. Bu vaziyatni kuzatib turgan ustozi bolalarga quyidagi savollarni berdi: Siz nima deb o‘ylaysiz, Zokirjonning bu ishi ....
Nuqtalar o‘rniga quyidagi so‘zlardan mosini qo‘ysangiz, bolalarning javobini bilib olasiz: *vatanparvarlik, tejamkorlik, daxldorlik.*

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Tabiiy resurslarni tejash va isrofgarchilikning oldini olish uchun «Men nima qila olaman?», «Biz nima qila olamiz?» mavzusida uchta katta guruhga bo‘linib loyiha tuzing. Bu loyihani hayotga tatbiq etishni ta’lim muassasasidan boshlang. Oilangiz a’zolari bilan nima ishlar qila olasiz?
2. Siz o‘ylab ko‘rganmisiz, bir kun uyingizga oqova suv kelmasa, yoki uch kun elektr energiyasi bo‘lmasa, qanday ahvolga tushasiz? Fikringizni asoslang!
3. «Tejamkorlikka yo‘l qo‘ymagan odam kambag‘allikka yo‘l tutadi», degan fikrni qanday izohlaysiz?
4. «Har narsaning o‘lchovi bor, shuning qatorida...» Yana nimalarning o‘lchovi va uvoli bor. Do‘stlaringiz bilan shu haqda suhbatlashing.



29–30-MAVZU: XOTIRA – BUYUK QADRIYAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Siz xotirlash deganda kimlarni xotirlash kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslab bering.
2. «O‘tganlarni xotirlash – yuksak insoniy fazilat» degan fikrni izohlashga harakat qilib ko‘ring.
3. Xotirlash qachon muqaddas burchga aylanadi?
4. Milliy qadriyatlarimizda «O‘tganlarni yaxshilik bilan eslang» deyiladi. Kimlar yaxshi xotira bilan eslanadi?

Mulohaza uchun



Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma’noga egadir. Insoniyat Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, ayovsiz jang-u jadalda qahramonlarcha halok bo‘lganlar xotirasini aslo unutmaydi. 9-may – «Xotira va qadrlash kuni» mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘. O‘tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e’zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardandir.

Ma’naviyat xazinasidan



Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash – odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Mulohaza uchun

Xotira

Har yili 9-may kuni otam bizlarni Mustaqillik va Xotira maydoniga olib borar edilar. Yo'l-yo'lakay gullar sotib olar edik. Ziyorat yakunida o'sha yerdagi kursilardan biriga borib o'tirardik. Otam sekin tilovat qilardilar va shu yerda nomlari bitilgan va urush yillarida halok bo'lgan askarlar, oddiy odamlar haqqiga duo qilar edilar. Keyin «Biz ko'rdik, sizlar ko'rmang!» deb takrorlardilar. Biz ulardan urush-





ning dahshatlari haqida so'raganimizda otam uzoq-uzoqlarga tikilib qolardilar. Ularning yuzlarida allaqanday qo'rquv bilan birga nafrat va qayg'u birlashib ketardi. Otam yana «Biz ko'rdik, sizlar ko'rmang!» deb javob berib, «tinchligimiz abadiy bo'lsin, bu kunlarni qadriga yetinglar», deb qo'yardilar.

Aqlimni tanib, urush haqidagi filmlarni ko'rib, kitoblarni o'qib shunday xulosaga keldim-ki, urushni xotirlash shu darajada dahshat bo'lsa, unda ishtirok etish qanday bo'lar ekan?...

1-ijodiy faoliyat

1. II jahon urushi bilan bog'liq qanday kitoblar o'qigansiz?
2. Xotira va qadriyat tushunchalarini berilgan hikoyaga bog'lab tushuntiring.
3. Nima uchun urushni ko'rgan, unda jonini fido qilgan yurt o'g'lonlarini xotirlash ishlariga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratiladi?
4. Tinchlikning qadriga yetish uchun nima qilish kerak?

Mulohaza uchun

Insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi. Tinchlik-xotirjamlik – taraqqiyot garovidir.

Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g'oya targ'ibotiga bag'ishlangan buyuk milliy-ma'naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi.

9-mayni Xotira va qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

II jahon urushida O'zbekistonimizdan 1 million 433 ming 230 nafar odam ishtirok etdi. 604 ming 52 nafar hamyurtimiz urush maydonlaridan nogiron bo'lib qaytdi, 450 mingdan ortiq vatandoshimiz esa qonli janglarda halok bo'ldi.





Respublika Ta'lim Markazi
edurtm_uz

2-ijodiy faoliyat

1. 105-betda berilgan suratlarning xotira va qadrlash tushunchalari bilan qanday aloqasi bor?
2. Har bir surat nimasi bilan o‘zaro bog‘liq?
3. Har bir surat haqida alohida ma’lumot bering.

Mulohaza uchun

2004-yilda Toshkent shahrida qurollangan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotilliklar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma’lumot yetib keldi. Gumonlanuvchilarning taxminiy qiyofasi huquqni muhofaza qiluvchi barcha organlarga yetkazildi. Poytaxtga olib boradigan barcha yo‘llarda himoya choralari kuchaytirildi. «Qoramurt» blok-postidagi har doimgidanda ziyrak ichki ishlar xodimlari «Tiko» avtomashinasiga to‘xtash ishorasini berishdi.



Haydovchi bir muddat sekinlashgandek bo‘ldi-da, biroq to‘xtamasdan keta boshladi. Katta leytenant Azizxon Tursunov mashinani to‘xtatishga shoshildi. Mashina haydovchisi uning shashtini ko‘rib, to‘xtashga majbur bo‘ldi.

Katta leytenant haydovchining hujjatini va yo‘lovchilarga razm solarkan, ulardan mashinadan tushishni talab qildi. Osoyishtalik posbonlari changalidan chiqib keta olmasligiga ko‘zi yetgan terrorchilar kiyimlari ichiga yashirilgan qo‘lbola portlash moslamasini harakatga keltirishdi...

3-ijodiy faoliyat



1. Agar ana shunday postlarda ziyrak ichki ishlar xodimlari bo'lmasa, yoki ular o'z vazifalariga loqaydlik bilan munosabatda bo'lishsa, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
2. Bizning tinch yashashimiz, sizlarning maktabga bexavotir borib kelishingiz, ko'chada yurishingiz, to'y-tantanalarda ishtirok etishingiz uchun kimlarning hayoti garovga qo'yilganini bilasizmi?
3. Quyidagi matnni o'tganlarni yaxshlik bilan eslash, degan fikrga qanday aloqasi bor?

   Bir yahudiy vafot etibdi, uni so'nggi yo'lga kuzatishda ravvin yig'ilganlardan, bu inson qanday edi, deb so'rabdi. Hamma jim bo'lib qolibdi. Bir zumdan so'ng yig'ilganlar orasida kimlardir, u kishining tishlari butun va chiroyli edi, deyishibdi. Shundan so'ng qolganlar ham buni tasdiqlashibdi.

Inson bor ekan, xotira – muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamonni asrab-avaylash, qadriga yetish uchun urushni, uning qahramonlarini, g'alabaga munosib hissa qo'shgan har bir qahramonni munosib xotirlaydi.

Aziz o'quvchilar, mehribon otalarimiz, mo'tabar onalarimiz boshimizdagi toj-u davlatimizdir. Bu g'animat dunyoda ota-onalarimiz, yoshi ulug'larimiz hayotini qancha qadrlab, umrlarini uzaytirishga qancha harakat qilsak, bu hayotda kam bo'lmaymiz.

Shunday qilib, Siz bu o'quv yili davomida go'zal tarbiya, muhim axloqiy tamoyillar, insonni ezgulikka yetaklovchi matnlardan iborat mavzular bilan tanishdingiz. Umid qilamizki, darslikda o'rgangan bilim va amaliy ko'nikmalar Sizni odob-axloqli, go'zal xulqli, ma'naviyatli, tarbiyali, har tomonlama yetuk va komil yigit-qizlar bo'lib voyaga yetishingizga yordam beradi va ularni kundalik faoliyatingizga tatbiq etasiz.

GLOSSARIY

Adolat (arabcha – odillik, to‘g‘rilik) – insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g‘oyasi, ma’naviyat, axloq va huquqning me’yoriy kategoriyalaridan biri.

Barqarorlik – tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy hamda mustahkam o‘rnatilgan muhim sharoit.

Vatan – (arabcha – ona yurt, o‘lka) kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakatidir.

Globallashuv (lot. globus – shar, yer sayyorasi) – jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishini ifoda etuvchi tushuncha.

Immunitet – (lotincha – ozod bo‘lishi, qutulishi) insonni turli ta’sirlardan himoya qilishga qodir reaksiyalar majmuyidir.

Innovatsiya (inglizcha – innovatsion) yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi, ya’ni tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta’riflanadi.

Imij (ing. image – qiyofa, tasvir) muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyektga nisbatan kishilar ongida shakllangan qiyofadir. U kishilar ongiga, hissiyotlariga, faoliyatiga hamda xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkazadi.

Inson – olamdagi boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya’ni aql, ma’naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy mavjudotdir.

Islohot – (arabcha «islohot» – yaxshilash tuzatish) – isloh qilish, tubdan o‘zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish.

Komillik – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg‘ayrat, qo‘rqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o‘ziga xos o‘lchov vositasini o‘taydi.

Ma’naviy meros – ma’naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuyini ifodalaydigan tushuncha.

Ma’naviyat – (arabcha – ma‘nolar majmuyi) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuyidir.

Ma’rifat (arabcha – bilish, bilim, ma’lumot, tanish, tanishish) – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma’lumotlar, ta’lim-tarbiya va maorif tizimi uyg‘unligini ifodalovchi tushuncha.

Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

Mediasavodxonlik (lotincha – media literacy) – mediani o'rganish layoqati va ko'nikmasiga ega bo'lish. Ommaviy kommunikatsiya xabarlardan foydalanish, tahlil qilish, baholash va ularni turli variantlarda (messages) uzatish layoqatidir.

Mentalitet – (lotincha – «aql», «zehn», «idrok», «zakovat») jamiyat, millat, jamoat yoki alohida shaxs, tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi va ma'naviy salohiyatdir.

Milliylik – muayyan xalqqa xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui.

Millat – (arabcha – xalq) bir hududda istiqomat qiladigan, umumiy til, madaniyat, urf-odat, qadriyatlar va ruhiy yaqinlik bilan farqlanuvchi ijtimoiy birlikdir.

Milliy o'z-o'zini anglash – milliy etnik jamiyatning tarixi, zamonaviyligi, taraqqiyot istiqbollarining dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni va roli to'g'risidagi tushunchalarning xususiyatlari, mazmun va mohiyatini ifodalovchi qarashlar va munosabatlar majmuidir.

Strategiya – amalga oshirishi lozim bo'lgan va uzoq davrga mo'ljallangan maqsadni amalga oshirish yo'li.

Tenglik – odamlarning jamiyatdagi o'rni, ularning millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqalaridan qat'i nazar bir xilligini ta'minlaydigan siyosiy va fuqarolik huquqlari, teng imkoniyatlari.

Tanazzul – taraqqiyotning aksi, tabiiy-ijtimoiy o'zgarishlarning beqarorlashuvi, inson va jamiyatning zaiflashib, muammolar ichida qolganini anglatuvchi tushuncha.

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

G'oya – inson tafakkuri mahsuli bo'lib, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun narsa va hodisalar to'g'risida ilgari surilgan izchil fikrlash shakli.

Etiket (frans. etiquette – ma'lum joyda o'rnatilgan tartib-qoida) – inson va jamiyat tashqi madaniyatining asosiy qismi bo'lib, asrlar davomida go'zallik, intizom, aql va idrokning uyg'unligi asosida shakllangan estetik me'yorlar majmuyidir.

@ talim_obrazovaniye

www.idum.uz

MUNDARIJA

ASTOYDIL HARAKAT – EZGU MAQSADGA ERISHISH OMILI! 3

I BOB. TINCH VA XOTIRJAM YASHASH BAXTI

1–2-MAVZU: IFTIXORIMSAN – JANNATMAKON O'ZBEKISTON! 4
3-MAVZU: MILLATLARARO HAMJIHATLIK 11
4-MAVZU: HAR BIR FARZAND VATAN HIMOYACHISI 15

II BOB. O'Z-O'ZINI ANGLASH

5–6-MAVZU: HAYOTDA O'Z ISTAKLARIMIZNI ANGLASH 21
7–8-MAVZU: QAT'IY FE'L-ATVORNING MUHIMLIGI 27
9–10-MAVZU: QIYIN VAZIYATDA HISSIYOTLARNI BOSHQARISH 33
11-MAVZU: HAYOT – BETAKROR NE'MAT 43

III BOB. O'ZGARISH, MASHAQQATLARNI YENGISH

12–13-MAVZU: TUSHKUNLIK VA BESARANJOMLIKNI BOSHQARISH 45
14-MAVZU: MASHAQQATLARNI YENGIB O'TISH 51
15–16-MAVZU: TANQID VA TANQIDIY FIKRLASHNING MUHIMLIGI 58

**IV BOB. TARAQQIYOT VA BIZNES –
ILM-FAN VA YARATUVCHANLIK MEVASI**

17–18-MAVZU: FAN–TEXNIKA TARAQQIYOTI
VA INSON MA'NAVIYATI 62
19-MAVZU: ILM VA ZAKOVAT 69
20–21-MAVZU: TIL BILGAN – DUNYO KO'RADI 75
22–23-MAVZU: VAQT – BEBAHO NE'MAT 81

V BOB. OILA VA SALOMATLIK

24–25-MAVZU: GO'ZAL TARBIYA TAMOYILLARI 88
26-MAVZU: TABIAT VA INSON 94
27–28-MAVZU: TEJAMKORLIK – YAXSHI FAZILAT 97
29–30-MAVZU: XOTIRA – BUYUK QADRIYAT 103
GLOSSARIY 108

Z. Zamonov, O. Maxmudov, Z. Islomov, D. Ro‘ziyeva, D. Rahimjonov, Sh. Sattorov,
N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, N. Xolmuxamedova,
S. Madaliyeva, L. Mo‘minova, S. Zokirova

TARBIYA 8

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
8-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Birinchi nashr

Muharrir: **Elmurod Egamqulov**

Texnik muharrir: **Sanjar Gapurov**

Musahhih: **Iqbol Malikova**

Dizayner va sahifalovchi: **Ravshan Malikov**

Nashriyot litsenziyasi AI № 015, 20.07.2018.
Bosishga 2020-yil 12-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Ofset qog‘ozi. «Arial» garniturasida ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 14. Nashr tabog‘i 9.

«Zamin nashr» nashriyoti 100053. Toshkent sh. Bog‘ishamol ko‘chasi 160-uy
Tel: 71 235-44-86 zaminnashr.uz

«Credo Print» Kitob fabrikasi hamkorligida chop etildi.
Toshkent sh. Bog‘ishamol ko‘chasi 160-uy
Tel: 71 234-44-01/05 www.credoprint.uz

COLORPACK

Dizayn konsepsiyasi va uslubi bosh pudratchi
«Colorpack» MCHJ tomonidan ishlandi.

Darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rah-barining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rah-barining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.